

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI
AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI**



**FILOLOGIYA FAKULTETI
O‘ZBEK TILI KAFEDRASI**

5111200 – o‘zbek tili va adabiyoti bakalavr ta‘lim yo‘nalishi
4- “A” kurs talabasi

BOLTABOYEVA INOBAT IKROMOVNA

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Mavzu: “O‘quvchilar so‘z boyligining ortib borishida
muloqot muhitining o‘rni”**

Talaba:	I.Boltaboyeva
Ilmiy rahbar:	f.f.d., dots. Y.Ibragimov
Kafedra mudiri:	p.f.n., dots. Sh.Yuldasheva

*O‘zbek tili va O‘zbek adabiyoti kafedralari qo‘shma yig‘ilishining 2018- yil
30- maydagi 5- bayonnomasi bilan himoyaga tavsiya qilindi.*

NUKUS – 2018

Boltaboyeva Inobatning “O‘quvchilar so‘z boyligining ortib borishida muloqot muhitining o‘rni” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga davlat attestatsiya komissiyasining qarori bilan «___» ball («___%») qo‘yildi.

«___» _____ 2018- yil

DAK kotibi:

O.Haytboyev

M U N D A R I J A

KIRISH. ISHNING UMUMIY TAVSIFI.....	4
I BOB. BOLA SO‘Z BOYLGINING ORTIB BORISHIDA MULOQOT MUHITINING O‘RNI	
1.1. Bolalar nutqi leksikasining ijtimoiy xoslanishi.....	9
1.2. Bolaning so‘z qo‘llash jarayonida diglossiya hodisasining namoyon bo‘lishi.....	20
II BOB. BOLANING PERSIPTIV LUG‘ATI	
2.1. Leksik o‘yin jarayonida bolaning nutqiy faoliyati.....	30
2.2. Maktabgacha yoshdagi bolalar lug‘at zaxirasining takomillashuvida dialogik nutqning ahamiyati.....	39
III BOB. O‘QUVCHILARNING KOMMUNIKATIV FAOLIYATI	
3.1. O‘quvchilarning kommunikativ faoliyatida mavhum leksemalarning ifodalanishi.....	46
3.2. O‘quvchilarning so‘z boyligining oshishi uchun ta’sir qiluvchi dars ishlanmalar	52
3-bob yuzasidan qisqa xulosalar	61
Umumiy xulosalar.....	62
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	64

KIRISH. ISHNING UMUMIY TAVSIFI

Mavzuning dolzarbligi. Maktabgacha yoshdagi bolalar va o‘quvchilar nutqiy muloqotiga oid sotsiopsixolingvistik xususiyatlar tadqiqi ta’lim-tarbiya jarayoni bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, istiqlol yillarida birinchi prezidentimiz I.Karimovning tashabbuslari bilan mazkur masalaga katta e’tibor qaratilgan. Xususan, birinchi prezidentimiz barkamol avlod tarbiyasi bilan bog‘liq masalalar tahliliga bag‘ishlangan asarlarida ushbu masalaga alohida urg‘u berilgan: “Kelajakda O‘zbekiston yuksak darajada taraqqiy etgan iqtisodi bilangina emas, balki bilimdon, ma’naviy jihatdan yetuk farzandlari bilan ham jahonni qoyil qilishi lozim”¹. Hozirda ham yurboshimiz Sh.Mirziyoyev tashabbuslari va rahbarliklarida bilan ta’lim tizimi uning turli tomonlariga alohida e’tibor qaratib kelmoqda buning misoli tariqasida ta’lim-tarbiyani maktabgacha tarbiya muassasalaridan boshlash kerakligi haqidagi qarorlar va turli amaliy ishlar buning misoli bo‘la oladi.

Demak, bolaning ta’lim-tarbiyasi va kognitiv taraqqiyoti bilan bog‘liq xususiyatlar, eng avvalo, uning nutqiy xulqida o‘z ifodasini topadi. Tilshunoslikda maktabgacha yoshdagi o‘zbek bolalar nutqining ontogenetik xususiyatlarini lingvistik aspektida o‘rganish yuzasidan bir qancha ishlar qilingan. Keyingi davrlarga kelib, o‘zbek tilshunosligida bolalar nutqining lingvistik xususiyatlari o‘rganila boshlandi.

O‘zbek bolalar nutqi leksikasiga doir masalalarga oydinlik kiritish til va nutq munosabati, tafakkur va nutq munosabati, nutqiy faoliyat nazariyasi kabi psixolingvistik hamda sotsiolingvistik muammolar talqinida muhim o‘rin tutadi. Bu esa o‘z navbatida tilning ichki imkoniyatlarini yanada aniqlashtirish uchun xizmat qiladi. Chunki tilning asosiy qurilish materiali so‘zdir.

Bolalar nutqini har tomonlama o‘rganish orqali uning mohiyatini ochib berishga xizmat qiluvchi ontolingvistika (bolalar nutqini kompleks holda tadqiq etuvchi yo‘nalish)² nisbatan yosh fan bo‘lishiga qaramay, uning ildizlari uzoq

¹ Каримов И. Баркамол авлод орзуси. - Тошкент: Шарк, 1999. - Б. 92.

² Каранг: Гридина Т.А. Онтолингвистика. Язык в зеркале детской речи. - Санкт-Петербург: Флинта, 2006. - 152 с.

davrlarga borib taqaladi. So‘nggi yillarda ontolingvistika tobora mustaqil ilmiy yo‘nalish maqomiga ega bo‘lib, mazkur sohaga oid tadqiqot muammolarining ko‘lami kengayib, chuqurlashib bormoqda. Chunki insonning qay tarzda so‘zlashi, unda nutqning paydo bo‘lish va shakllanish jarayoni bilan bog‘liq masalalar tadqiqotchilarni avvaldan qiziqtirib kelgan. Bolalar nutqiga oid dastlabki qarashlar Germaniyada D.Tideman tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotda o‘z aksini topgan.

O‘zbek tilshunosligida bolalar nutqi masalasi XX asrning 80-90-yillaridan boshlab alohida yo‘nalish sifatida o‘rganilib kelinmoqda. Jumladan, O.Umarxo‘jaeva hamda M.S.Ismailovning bu boradagi qator maqolalari monolingval va bilingval o‘zbek bolalar nutqida kuzatiladigan ayrim fonetik o‘zgarishlar va grammatik xususiyatlar talqiniga bag‘ishlangan³. O‘zbek tilshunosligida maktabgacha yoshdagi bolalarning muloqotga kirishish xususiyatlari muayyan darajada o‘rganilgan bo‘lib, ushbu mavzuga oid amaliy kuzatuvlar va nazariy xulosalar qator maqolalarda o‘z ifodasini topgan. Ularda bolaning kattalar va tengdoshlari bilan muloqotga kirishuvi, bola ideolektining shakllanishi, bola nutqining ijtimoiylashuvi kabi masalalar 6 oydan 4 yoshgacha bo‘lgan bolalar nutqi misolida ijtimoiy-lisoniy nuqtai nazardan tahlil qilingan⁴.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, hozirgi kunga qadar tilshunoslikda maktabgacha yoshdagi o‘zbek bolalar nutqining fonetik, grammatik hamda kommunikativ xususiyatlari umumlingvistik va sotsiolingvistik jihatdan muayyan darajada tadqiq etilgan. Biroq maktabgacha ta’lim muassasasi tarbiyalanuvchilari va o‘quvchilar nutqi leksikasining sotsiopsixolingvistik xususiyatlari yuzasidan yirik monografik tadqiqot amalga oshirilmagan.

Til lug‘at tizimining o‘zlashtirilishi lisoniy qobiliyat hamda ijtimoiy kommunikatsiya jarayoni bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, nutqiy faoliyatida kuzatiladigan spetsifik xususiyatlar ontogeneznining dastlabki bosqichi (9 oy)dan

³ Қаранг: Умархўжаева О. Болалар нутқи ҳақида баъзи мулоҳазалар // Самду илмий ишлар тўплами. - Самарқанд, 1982. - Б. 60; Исмаилов М.С. К проблеме экспериментального изучения раннего двуязычия // Принципы и методы социолингвистических исследований. - М.: Наука, 1989. - С. 34-39.

⁴ Қаранг: Искандарова Г. Бола идиолекти / Магистратура талабаларининг илмий ишлари тўплами. - Тошкент, 2003. - Б. 217-218; Бола нутқининг ижтимоийлашув жараёни / Тилшуносликнинг долзарб масалалари. - Тошкент, 2004. - Б. 44-46.

yetuklik davri (16 yosh)gacha bo'lgan bolalar va o'smirlar muloqotida aniq ko'zga tashlanadi. O'zbek bolalarning so'z o'zlashtirish va undan foydalanish jarayonida kuzatiladigan muammolarning yuzaga kelish sabablarini belgilash hamda ularni bartaraf etishda lisoniy va nutqiy vaziyatning ta'sirini alohida e'tiborga olish maqsadga muvofiqdir. Chunki bolalar nutqi leksikasiga xos umumiy xususiyatlar ularni qurshab turgan ijtimoiy muhitga bog'liq holda namoyon bo'ladi, bolalarning so'z qo'llash jarayonida yuzaga keluvchi o'ziga xos jihatlar esa ularning ruhiy holatini o'rganish orqali aniqlanadi. Bolalar nutqi leksikasini bunday yondashuvlar asosida tahlil qilish nafaqat ularning maktabgacha yosh davrida, balki o'smirlik davrida kuzatiladigan sotsiolingvistik hamda psixolingvistik xususiyatlarni tadqiq qilish mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Bolalar nutqining leksik xususiyatlari jahon tilshunosligida atroflicha o'rganilgan.

O'zbek tilshunosligida maktabgacha yoshdagi bolalar nutqining fonetik hamda grammatik xususiyatlari, bolalarda nutq mahsulining paydo bo'lishi va shakllanishi, bola nutqiy faoliyatida ijtimoiy muhitning ahamiyati, bolaning ijtimoiylashuv jarayonida neologizmlarning o'rni bilan bog'liq masalalar lingvistik va sotsiolingvistik nuqtai nazardan talqin qilingan.

Tadqiqot obyekti. Bitiruv malakaviy ishining obyekti bolalar so'z boyligining oshib borishida muloqot muhitining o'rni, bolalar so'z zahirasiga ular yashab turgan muhit, oilaning bevosita va bilvosita ta'siri masalalari tadqiq qilingan.

Tadqiqot predmeti bolalar so'z boyligining ortib borishida muloqot muhitining o'rmini turli tajriba metodlari, psixologik tajribalar asosida tadqiq qilish hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi. Bitiruv malakaviy ishning bosh maqsadi monolingval va bilingval o'zbek bolalar nutqi leksikasini sotsiolingvistik hamda psixolingvistik aspektida tadqiq etish orqali funksional-semantik jihatdan mushtarak va o'ziga xos xususiyatlarni aniqlashga qaratilgan.

Tadqiqot vazifalari. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi

vazifalar qo'yilgan:

- bolalar nutqi leksikasining ijtimoiy xoslanishini tadqiq etish;
- bolalarning nutqiy faoliyatida lisoniy vaziyat ta'sirida yuzaga keluvchi leksik muammolarni o'rganish;
- bolalar lug'at zaxirasining takomillashuvida intellektual-psixologik o'yinlarning ahamiyatini aniqlash;
- bolalar tomonidan mavhum so'zlar semantikasining idrok etilishini talqin qilish.

Tadqiqot metodlari. Mavzu yuzasidan misollar to'plashda kuzatish, tajriba, so'rov, suhbat, so'zni izohlash, tavsiflash, test, bilim darajasini aniqlash metodlaridan foydalanilgan. Jamlangan dalillarni tahlil qilishda ijtimoiy sharoitni tahlil qilish, qiyoslash, semantik differentsiatsiya, tasniflash, klaster, statistik metodlar qo'llanilgan.

Ishning ilmiy yangiligi. O'zbek millatiga mansub maktabgacha yoshdagi bolalar va o'quvchilar nutqining leksik-semantik xususiyatlarini sotsiolingvistik hamda psixolingvistik nuqtai nazardan talqin qilish orqali quyidagi yangiliklarga erishildi:

- bolalar nutqida ijtimoiy omillar ta'sirida yuzaga keluvchi leksik dialektizmlar semantik xususiyatlariga ko'ra guruhlarga tasniflandi;
- diglossiya va sun'iy bilingvizmning bola leksikoniga ta'siri tadqiq etildi;
- bolalar nutqiga xos so'zning nomlash funksiyasi asoslari yoritildi;
- bolalar lisoniy qobiliyatining shakllanishi va rivojlanishida leksik o'yinlarning ahamiyati bayon etildi;
- bolalar va o'smirlar persektiv lug'atida mavhum leksemalarning ifodalanishi tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalari tilshunoslikning psixolingvistika va sotsiolingvistika yo'nalishlarida yuzaga keluvchi ilmiy ishlar uchun nazariy manba bo'la oladi. Mavzuga oid daliliy materiallardan bolalar lug'at zaxirasini yangi leksik birliklar bilan boyitish orqali ularning nutqini rivojlantirish uchun amaliy tavsiyalar, sotsiolingvistika hamda

psixolingvistika kurslari bo'yicha o'quv qo'llanma va darsliklar yozishda foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi va hajmi. Malakaviy ish kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ishning hajmi 66 bet.

I BOB. BOLA SO‘Z BOYLLIGINING ORTIB BORISHIDA MULOQOT MUHITINING O‘RNI

1.1. Bolalar nutqi leksikasining ijtimoiy xoslanishi

Bola tomonidan nutqiy funksiyalarning o‘zlashtirilish jarayoni uning maktabgacha yosh davrida uch bosqichda amalga oshadi. Birinchi bosqich (tug‘ilganidan boshlab 9 oylik davrigacha)da go‘dak atrofidagi kattalarning nutqini tushunmaydi va o‘zi ham so‘zlay olmaydi. Biroq bu bosqichda kelajakda shakllanadigan nutqni o‘zlashtirishga zamin hozirlanadi. Tadqiqotlarda mazkur davr noverbal bosqich deb ataladi. Ikkinchi bosqich (9 oydan 3 yoshgacha) – nutqning shakllanish bosqichi sanaladi. Bu davrda bola kattalar tomonidan qo‘llanadigan oddiy, sodda shakldagi nutqiy qurilmalarni tushunishga harakat qiladi, o‘zi ham dastlabki so‘zlarni talaffuz qila boshlaydi. Uchinchi bosqich 3 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Bu bosqichda bola kundalik hayotda faol qo‘llanadigan nutq birliklarini to‘liq o‘zlashtiradi va ulardan atrofidagilar bilan muloqot jarayonida keng foydalanadi. Bu bosqich nutqiy muloqotning rivojlanish bosqichi hisoblanadi. Psixologlarning ma’lumotlariga qaraganda 1 yoshdan 5 yoshgacha bo‘lgan davrda bolalarga qanday o‘rgatsangiz shunday xotirasida saqlab qola oladi.

Metodik adabiyotlarda berilgan ma’lumotlarga asoslanib shuni aytish mumkinki, 1 yoshga yetgan bolaning talaffuz qiladigan so‘zlari soni 10 tani tashkil etadi. Mazkur yosh davridan boshlab, uning lug‘at zaxirasi miqdor jihatdan jadallik bilan ortib boradi. Bolaning so‘z o‘zlashtirishida kattalar nutqiga taqlid qilish holati muhim ahamiyat kasb etadi⁵.

Bola dastlab narsa-buyum nomlarini bildiruvchi so‘zlarni ko‘p ishlatsa, keyinchalik ish-harakatni ifodalovchi leksemalarni ham qo‘llay boshlaydi. 2 yoshga to‘lgan bolaning so‘z boyligi 250-300 taga yetadi. Bola 3 yoshga qadam qo‘yishi bilan uning leksikonida narsa-buyum va harakatning belgisini bildiruvchi so‘zlar paydo bo‘ladi. Bu yosh davridagi bolada kattalar nutqini yanada chuqur

⁵ Шодиева Қ. Нутқ ўстириш услубияти. - Тошкент: Ўқитувчи, 2002. - Б. 68.

tushunish imkoniyati vujudga keladi, ular tomonidan aytilgan ertak, hikoya, qo'shiq, va kichik she'rlarni diqqat bilan tinglash orqali yangi so'zlarni o'zlashtirib boradi. Kattalarga: buning nomi nima? nima uchun? nega shunday? qayerda? qayerga ketdi? qayerdan keldi? nimadan yasalgan? kabi savollar bilan murojaat qiladi. Shu asosda 3 yoshga to'lgan bolaning lug'at boyligi 1000 tadan 1200 tagacha, 6 yoshli bolaning so'z boyligi 3-3,500 tagacha ko'payib boradi⁶.

Demak, maktabgacha yosh davrida bolaning so'z boyligi juda tez ortadi. Bola leksikonining bu tarzda boyib borishi maktabda uning til qoidalarini chuqur o'zlashtirishiga asos bo'ladi.

Inson butun hayoti davomida til boyliklarini o'zlashtirish orqali nutqini takomillashtirib boradi. Ontogenez davri ona tilining lug'at tizimiga xos imkoniyatlarni o'zlashtirishdagi asosiy bosqich sifatida e'tirof etilsa-da, lisoniy birliklar har doim ham bolaning nutqida til me'yorlariga muvofiq holda ifodalanmaydi. Ayniqsa, bolaning 9 oydan 3 yoshgacha bo'lgan davrida ba'zi tushunchalarni ifodalovchi nominativ birliklar muloqot muhiti (ijtimoiy sharoitga ko'ra tilning mavjudlik shakllari va uslublaridan foydalanish)ga bog'liq ravishda uning nutqida o'ziga xos tarzda aks etadi. Bolalar verbal muloqotining shakllanishini bevosita kuzatish jarayonida ularning nutqida aks etgan bir qator leksik vositalar yuqoridagi fikrni tasdiqlaydi. Masalan, *umma yoki buvva* so'zi aksariyat bolalarning nutqida "suv" ma'nosini anglatadi. Bolalar nutqida bunday leksik birliklar ijtimoiy omillar ta'sirida paydo bo'ladi. Ya'ni bunda nafaqat bolaning ruhiy holati bilan bog'liq ichki omillar, balki tashqi ta'sir birliklari (vaziyat, holat, ijtimoiy muhit) ham muhim ahamiyatga egadir. Chunki yuqoridagi kabi lug'aviy birliklar dastlab bola bilan muloqotga kirishayotgan kattalar tomonidan fikrni tushunarli tarzda aks ettirish maqsadida qo'llanadi. Bola esa bunday nutqiy ifodalarni kattalardan eshitib, qanday ma'no anglatishini xotirada saqlab qolishga harakat qiladi va muloqot vaziyatida ulardan keng foydalanadi. Masalan, Qarshi shahar shevasida so'zlashuvchi bolalar tomonidan taqinchoqlar va zargarlik buyumlarining nomini ifodalash maqsadida *taqa, pixa, jiji* so'zi ishlatilsa,

⁶ Шодиева Қ. Кўрсатилган манба. - Б. 69; Сайидираҳимова Н.С. Мактабгача ёшдаги ўзбек болалар нутқининг лингвистик хусусиятлари. Филол. фан. номз. ... дис. автореф. - Тошкент, 2004. - Б. 7.

kaka - tuxum, **qoqo**, [leksemasi shokolad, konfet, shakar, qand, singari ta'mi shirin bo'lgan qandolat mahsulotlariga nisbatan qo'llanadi. Mazkur yosh davridagi bolalarning lug'at boyligi kam bo'lganligi tufayli, yuqoridagi singari so'zlar ularning nutqida integral semaga ega bo'ladi. Chunki bolalar nutqida uchraydigan bu kabi misollarning aksariyati hududiy va ijtimoiy belgilar asosida yuzaga keladi.

Shunga ko'ra, bu boradagi kuzatuv jarayonida to'plangan dalillarni maktabgacha yoshdagi o'zbek bolalar nutqiga xos leksik dialektizmlar sifatida talqin qilish maqsadga muvofiqdir. Jumladan, karnay-surnay ovozi Qarshi shahar shevasida so'zlashuvchi o'zbek bolalar nutqida **g'ata-g'ata-g'u** deb atalsa, boshqa tumanlarda yashovchi bolalar tomonidan ushbu tushunchani ifodalashda **bota-bata** so'zi istifoda etiladi. Aksincha, bolalar nutqiga oid ayrim leksik dialektizmlar semantik jihatdan shevalararo farqlanadi: **quqi:ququq:qoqoq: tutu** - so'zlari Gurlan shevasida muloqotga kirishuvchi bolalar nutqida uy va yovvoyi qushlar **xo'roz, tovuq** va uning turlarini nomlashga xizmat qiladi. Qarshi shahar shevasida so'zlashuvchi bolalar nutqida "issiq" tushunchasi **jiz** so'zi orqali ifodalansa, Gurlan tuman shevasida so'zlashuvchi bolalar nutqida bu tushuncha **pishsh** so'zi orqali ifoda etiladi.

Ba'zan bolalar nutqida bunday semantik farqlanishlar bir lahja yoki muayyan sheva doirasida ham kuzatiladi: Gurlan shahrida yashovchi bolalar nutqida uchraydigan san'at sohasiga doir **naynum:nanay-nanay** so'zi "qo'shiq", "musiq", "raqs" kabi ma'nolarni aks ettiradi. Bu holat bolaning ongida bir semantik maydonga xos bo'lgan sememalarni tutashtiruvchi ma'noning ohang tushunchasi asosida shakllanganligini aniqlashga yordam beradi. Gurlan tumani shevasida so'zlashuvchi bolalar nutqiga xos bunday nutqiy birliklarni leksik-semantik xususiyatlariga ko'ra to'rt guruhga ajratish mumkin:

I. Narsa-buyum va shaxs nomini bildiruvchi so'zlar: **bapa**– chaqaloq, **gol** – to'p, **jiji** – yangi kiyim-bosh, **popoq** – oyoq kiyim, **ayaya** – uyat, **pix** – yara (tananing shikastlangan qismi), **ashsha** – ovqat, **nanna** – non.

II. Ish-harakatning nomini bildiruvchi so'zlar: **oppa** – ko'tarmoq, **bum** – yiqilmoq, **atata** – urmoq, **xam:xap** – yemoq.

III. Narsa-buyumning belgisini bildiruvchi soʻzlar: *opoq* – yaxshi, toza, *qixxa* :*axx*– yomon, kir; *ax,ishsh*-bolani toʻsmoqda ishlatiladi.

IV. Imitatsiya usuli asosida hosil boʻlgan soʻzlar: *chiq-chiq* – soat, *bi-bi* , *dudit* - mashina *pu-pu* - poezd, *tr-tr* -traktor, *divva* - traktor va b..

Mazkur leksik vositalar bolalar muloqotiga xos sheva unsurlari sifatida ishlatilsa ham, ular muayyan vaqt davomida goʻdakning faol lugʻatidan oʻrin egallaydi. Tadqiqotimiz bolalar nutqi leksikasiga bagʻishlanganligi tufayli, biz yuqorida ularning kommunikativ faoliyatida shevaga xos soʻzlar semantikasining ifodalanishi bilan bogʻliq masalalarga qisman toʻxtaldik.

Bundan anglashiladiki, oʻzbek bolalar nutqiga oid leksik dialektizmlarning semantik xususiyatlari monografik planda tadqiq etilishi lozim boʻlgan muammolardan hisoblanadi. Bola nutqiy muloqotining rivojlanishi va tafakkurining kengayib borishi natijasida uning leksikonida mavjud boʻlgan yuqoridagi kabi oʻziga xos ifoda vositalari meʼyoriy nutq birliklari bilan almashadi. Biroq bolaning hayotiy tajribasi yetarli boʻlmaganligi uchun u ayrim soʻzlarning maʼnosini tez oʻzlashtira olmaydi. Bu jarayon uzoq davom etib, maktabgacha yosh davrini qamrab oladi.

Albatta, barcha tengqur bolalarning soʻz boyligi bir xil koʻrsatkichni tashkil etmaydi. Bolalar nutqining kommunikativ xususiyatlariga oid tadqiqotda ushbu masalaga quyidagicha yondashiladi: “Bola aqliy va lisoniy faoliyatining rivojlanishida ota-onaning yoshi ham katta ahamiyatga ega. Agar bolaning ota-onasi yosh jihatdan kattaroq boʻlishsa, yaʼni 35-40 yosh yoki undan ham katta boʻlsa,(uyda katta bobo-buvilari) ular farzandi (nabirasi) nutqi bilan jiddiy shugʻullanadi. Kuzatishlarga koʻra, ota-onasi yosh jihatdan kattaroq boʻlgan bolalar ertaroq gapira boshlaydi, ularga qaratilgan nutqni tez ilgʻab, tushunib oladilar. Bunday bolalar nutqida katta yoshdagi odamlar nutqiga xos xususiyatlar kuzatiladi”⁷.

Shu oʻrinda taʼkidlash joizki, maktabgacha yoshdagi bola soʻz zaxirasining miqdori koʻp jihatdan u tarbiyalanayotgan oilaning madaniy saviyasi bilan ham

⁷ Исқандарова Г. Бола нутқий фаолиятида ижтимоий муҳитнинг аҳамияти / Ўзбек тилшунослиги масалалари: Илмий мақолалар тўплами. - Тошкент, ЎЗМУ, 2003. - Б. 87.

bevosita bog‘liq. Chunki ba‘zi oilalarda bolaning nutqini rivojlantirish va so‘z boyligini oshirish bilan muntazam ravishda shug‘ullanilsa, ayrim oilalarda masalaga yetarli darajada e‘tibor berilmaydi. Bu esa bolada nutqiy muloqotga bo‘lgan ehtiyojni susaytiradi. Shu sababli bola o‘z fikrlarini ifodalashda ko‘proq noverbal muloqot vositalari (mimika va imo-ishoralar)dan foydalanishga harakat qiladi.

Psixologlarning ilmiy xulosalariga ko‘ra, adresat uchun vizual (imo-ishora) reaksiya nutqiy reaksiyaga qaraganda, o‘rtacha 170 m.sek. tez amalga oshadi. Bolalar tomonidan semantik munosabatlarning ifodalanishida ular uchun narsa-buyumlarni nomlashdan ko‘ra, harakat orqali tushuntirish nisbatan qulay kechadi. Natijada maktabgacha yoshdagi tengdosh bolalar so‘z zaxirasi o‘rtasida sezilarli tafovut ko‘zga tashlanadi. Biz bu boradagi tafovutning yuzaga kelishida muloqot muhitining ahamiyatini aniqlash maqsadida 3-4 yoshli bolalar nutqi ustida tajriba o‘tkazdik⁸.

Sinov jarayonida narsa-buyumlar, hayvonlar, qushlar, parrandalar hamda xatti-harakatlar tasvirlangan suratlardan material sifatida foydalandik. Tajribada Gurlan shahridagi “Sevinch” maktabgacha ta’lim muassasasining o‘n to‘rt nafar tarbiyalanuvchisi ishtirok etdi. Sinaluvchilar bilan savol-javob asosida individual suhbat o‘tkazildi. Tarqatma materiallar bolalarga birma-bir ko‘rsatilib, ulardan rasmda aks etgan tasvirni nutq orqali ifodalash so‘raldi. Bolalarning u yoki bu rasimga qarab “Bu nima?”, “Bola nima qilmoqda?” kabi savollarga bergan javoblarini quyidagicha umumlashtirish mumkin:

1. Bola mazkur yosh davrida o‘zini o‘rab turgan tevarak-atrof, undagi hodisalar bilan nisbatan tanish bo‘ladi. Chunki bolaning kundalik hayotida faol ifodalanuvchi so‘zlar muntazam ravishda foydalaniladigan narsa-buyum, xatti-harakatlarni nomlash vazifasini bajaradi. Tajriba ishtirokchilari ”mushuk, kuchuk, ot, shkaf, televizor, choynak, qoshiq, yemoq, ichmoq, o‘ynamoq” kabi narsa-buyumlar, hayvonlar va harakatlar tasvirini nutq orqali ifodalashda savollarga qiynalmay javob berishdi. Bu javoblar bolalarning o‘ziga xos tovush ifodasi va

⁸ Tajriba 2014 йил 18 январда ўтказилган. Синов натижалари акс этган жадваллар ва тажриба жараёнида фойдаланилган суратлар 1-иловада қайд қилинган.

ohangi orqali ajralib turadi. Masalan, Malika Aminova surat orqali ikki bolaning o‘yinchoq (mashina) o‘ynayotganini ko‘rib, *lego o‘ynayopti*, – deb javob berdi. “lego qanday o‘yin?” – deb so‘ralganida, u: *unnon moshinlar, uychala yosaladi*, – dedi. Bola o‘zi shu o‘yinni o‘ynagani uchun ham bu tasvir unda shunga xos assotsiativ mazmun kasb etgan edi.

2. Bola 3-4 yoshida bizni o‘rab turgan tevarak-atrofdagi barcha narsa-hodisalar bilan to‘liq tanish bo‘lmaydi. Shuning uchun ham tajriba o‘tkazilayotgan guruh tarbiyalanuvchilari kundalik hayot tarzida kam uchraydigan narsa-buyum, xatti-harakatlarni nomlashda o‘ziga xos psixolingvistik xarakterdan kelib chiqqanlar. Masalan, qo‘g‘irchoq tasvirlangan rasmga qarab, Erkin Islomov *masqayabos* (masxaraboz), Sirojiddin Erkinov esa *o‘yincho* deb javob berdi. O‘g‘il bolalar, odatda, qo‘g‘irchoq o‘ynamaganligi uchun ham ular tomonidan bu tasvir shu tarzda nomlangan.

Bolalar nutqi leksikasiga xos sotsiopsixolingvistik xususiyatlar sinaluvchilar tomonidan muayyan hayvon yoki qush nomini ifodalovchi so‘zlarning ifodalanish jarayonida yaqqol aks etdi. Ularning ayrimlari quyidagi jadvalda o‘z ifodasini topgan:

1.1. jadval

№	Bolaning ismi sharifi	yo‘lbars	tulki	olmaxon	tipratikan	qo‘zichoq	laylak
1.	Diyor Nosirov	<i>sheyon</i>	<i>kuchuk</i>	<i>tulki</i>	javob bermadi	<i>ba</i>	<i>qush</i>
2.	Jamshid Hamidov	<i>pishiq</i>	<i>boyi</i>	javob bermadi	javob bermadi	<i>baajik</i>	javob berma-di
3.	Maftuna Qodirova	<i>bo‘yi</i>	<i>bo‘li</i>	<i>bo‘li</i>	<i>tipatikan</i>	<i>qo‘ycha</i>	<i>laylay</i>
4.	Bekzod Tursunov	<i>shey</i>	<i>bo‘yi</i>	<i>bo‘li</i>	<i>tipatikan</i>	<i>qo‘y</i>	<i>laylay</i>
5	Javohir Samandarov	<i>bo‘yi</i>	<i>kuchk</i>	<i>tulki</i>	<i>tipratkan</i>	<i>qo‘y</i>	javob berma-di
6	Malika	<i>sher</i>	<i>bo‘yi</i>	<i>quyon</i>	<i>toshbaqa</i>	<i>qo‘zicho</i>	<i>laylay</i>

	Umarova						
7	Xudoyor Qosimov	<i>yo‘bars</i>	<i>bo‘yi</i>	<i>olmaxon</i>	<i>tipatikan</i>	<i>haykal</i>	<i>oqqush</i>
8	Ubaydulla Bahromov	<i>shey</i>	<i>tulki</i>	<i>quyon</i>	javob bermadi	<i>maa diydi</i>	javob bermadi
9	Madina Toirova	<i>sher</i>	<i>tilki</i>	<i>quyon</i>	<i>tipratkan</i>	<i>qo‘ycha</i>	<i>qu-qu</i>
10	Furqat Shavkatov	<i>yo‘lbars</i>	<i>tulki</i>	<i>olmaxon</i>	<i>tipratkan</i>	<i>qo‘ycha</i>	<i>qarg‘a</i>
11	Xadicha Erkinova	<i>shey</i>	<i>tulki</i>	<i>quyon</i>	javob bermadi	<i>qo‘zicho</i>	<i>qush</i>
12	Mirsaid Mirzayov	<i>sher</i>	<i>tulki</i>	<i>quyon</i>	<i>tipatikan</i>	<i>baacha</i>	<i>laylay</i>
13	Erkin Islomov	<i>kuchik</i>	<i>kuchik</i>	<i>quyon</i>	javob bermadi	<i>qo‘y</i>	javob bermadi
14	Sirojiddin Erkinov	<i>yo‘bas</i>	<i>bo‘yi</i>	<i>quyon</i>	javob bermadi	<i>qo‘zicho</i>	<i>qush</i>

Misollardan ko‘rinib turibdiki, bola o‘zi yaxshi tanish bo‘lmagan hayvonlarni ularning tashqi ko‘rinishi, harakati, nimaga o‘xshashi va qanday ovoz chiqarishiga asoslangan holda ataydi. Bu holatning yuzaga kelishi bola tomonidan ko‘rilgan multfilm va kinofilmlar, eshitilgan ertak-hikoyalar asosida tasavvurlarning hosil bo‘lishi va ularning assotsiativ mazmuni bilan bog‘liq.

3. Tajriba natijalarining tahlili shuni ko‘rsatadiki, ayrim bolalarning so‘zlar vositasida fikrlarini erkin ifodalashida lisoniy to‘siqlar mavjud. Bu lisoniy to‘siqlar Erkin Islomov (3 yoshu 10 oy), Ubaydulla Bahromov (4 yoshu 2 oy), Xadicha Erkinova (3 yoshu 6 oy) va Diyor Umarov (3 yoshu 7 oy)ning javoblarida yuzaga kelgan.

Tajriba ishtirokchilarining oilaviy muhiti, muloqotga kirishishning ruhiy, nutqiy tayyorgarlik holatini izchil tekshirish orqali aniqlanishicha, bu bolalar oilada to‘ng‘ich farzand bo‘lib, ular bilan muloqotga kirishuvchilar soni boshqa bolalarnikiga nisbatan ancha kam. Bolalar bilan asosan ularning ota-onasi suhbatlashadi. Maktabgacha ta‘lim muassasasida tarbiyachining bolaga

munosabatiga ko‘ra, uning ongida “bog‘cha – yaxshi” yoki “bog‘cha – yomon” tushunchalari shakllanadi. Bola uchun bog‘cha muhiti oila muhitidan keyingi ikkinchi darajali muhim sharoit bo‘lib, uning aqliy va jismoniy rivojlanishida bog‘chadagi to‘g‘ri va sog‘lom muhit foydadan holi bo‘lmaydi.

Kattalar tomonidan bolani muloqotga jalb etish unda muomala madaniyatini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Bolaga qaratilgan nutq uning xulq-atvorini tartibga solib turuvchi, bajaradigan vazifalarini rejalashtirishga undovchi vositadir. Bolaning odobi dastlab uning tilida, tili orqali nutqiy xulqida o‘z aksini topadi. Go‘daklik davridan boshlab, odob doirasidagi muomala madaniyatini o‘zlashtirgan insonga nutqiy muloqotni egallagan shaxs sifatida qaraladi. So‘zlashuv odobi o‘z tabiati va mohiyatiga ko‘ra ijtimoiy hodisa hisoblanadi. Jamiyatga xos qonuniyatlar tarbiya jarayonidagi muomala odobining poydevoridir. Muomala odobi jamiyat tomonidan qabul qilingan ma‘naviy, umumbashariy va milliy axloqiy qadriyatlarga asoslanadi.

Lingvistik kommunikatsiya (nutqiy muloqot) jarayonida fikr almashish hodisasi har bir insonda, ongli mavjudotda asosan verbal usul bilan, ya‘ni so‘z orqali amalga oshadi. Shunday ekan, o‘z-o‘zidan nutqiy odat, nutq madaniyati, nutqiy axloq yoki nutqiy xulq, muloqot xulqi, kommunikativ kompetensiya, kommunikativ salohiyat hamda lisoniy qobiliyat tushunchalariga izoh berish maqsadga muvofiqdir.

Ma‘lumki, bola bilan muloqot jarayonida adresant aksariyat hollarda so‘roq gaplardan foydalanadi. Chunki muloqotga kirishuvchi shaxs bolaning fikrini erkin ifodalashi uchun yordam berishi, uni gapirtirishi kerak bo‘ladi. Suhbat metodi orqali 5-6 yoshli bolalarning bilimlari, voqea-hodisalar haqidagi tasavvurlarini aniqlash, tevarak-atrofdagi odamlar hamda turli narsalarga bo‘lgan munosabatlarini o‘rganish mumkin. Aynan muloqot chog‘ida bola barcha ijtimoiy bilimlarni kattalar tajribasi orqali o‘zlashtirib boradi. Bu bola lisoniy qobiliyatining shakllanishi va rivojlanishiga asos bo‘ladi.

Kommunikativ kompetensiya – tildan turli lisoniy vaziyatlarda va ijtimoiy muhitlarda to‘g‘ri foydalana olish demakdir. Kommunikativ qobiliyat lisoniy, shu

bilan birga ijtimoiy salohiyatning muayyan muloqot muhitida yuzaga kelishini talab etadi. Bu holat insonning jamiyatda o'z o'rniga erishuvida muloqotning naqadar muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Nutqiy muloqot nazariyasida kommunikativ kompetensiya muhim markaziy tushunchalardan biriga aylanadi. Kommunikativ qobiliyat muloqot aktining ajralmas qismi ekan, unga nutqiy xulq tushunchasi bilan bog'liq holda yondashish nutqiy muloqot nazariyasi masalalariga aniqlik kiritishga yordam beradi. Shu maqsadda biz 5-6 yoshli bolalar nutqi ustida tajribaviy kuzatuv olib bordik. Sinov jarayonida sholg'om haqidagi ertak qahramonlari tasvirlangan suratlardan material sifatida foydalandik. Bolalar bilan savol-javob usuli asosida interaktiv suhbat o'tkazildi.

Biz bolalar bilan muloqot jarayonida ularning o'ziga xos, boshqalarnikiga o'xshamaydigan javoblari, mavhum tushunchalarni izohlashlari, turli nutqiy vaziyatlarda o'zlarini tutishlariga alohida e'tibor qaratdik. Masalan, "Xasis odam qanday bo'ladi?" tarzida berilgan savolga Olim Saidov *pulga berilgan bo'ladi*, – deb javob berdi. Qolgan barcha bolalar: *yomon odam*, – deb javob berishdi.

Bolalar "Sholg'om", "Zumrad va Qimmat", "Oltin tarvuz" kabi ertaklarni bilishlari, ularni asosan bog'cha tarbiyachilari hamda O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasining O'zbekiston teleradiokanalida namoyish etilgan "Oqshom ertaklari" va "Ertaklar – yaxshilikka yetaklar" ko'rsatuvlari orqali ko'rib, eshitganliklarini aytdilar. Ikki nafar bolaning buvisi va bobosi tungi uyqu oldidan ertak aytib berishi, uch nafar bolaning tez aytishlarni bilishi kuzatildi. Jumladan, Hilolaxon Erkinova *fil fili oldida fantan* tarzidagi tez aytishni nutqda to'g'ri ifodalashga harakat qildi. Murodjon Odilov nutqida tez aytish quyidagicha aks etdi: *Oq chaynikka ko'k chaynik, ko'k choynikka oq qopqoq*.

Ko'rinadiki, bu o'rinda tez aytish bola tomonidan buzib ifodalangan. Aslida "Oq choynakka oq qopqoq, ko'k choynakka ko'k qopqoq" bo'lishi lozim. Muxlisa Shokirovaning tez aytish bilan topishmoqni farqlamasligi uning bergan javobidan aniqlandi: *Qat-qat qatlama, aqling bo'lsa tashlama*.

Bolalar keltirgan tez aytishlar ularning nutqini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, bunda bolaning xotirasi shakllanadi. Talaffuz moslashtirilgani uchun

bolalar tomonidan aytilayotgan misollar o‘ziga xos tarzda aks etadi.

Bolalardan maqollar va ularning ma’nolari haqida so‘ralganida, Xushnud Mirzayev “Oltin olma, duo ol” maqolini quyidagicha izohladi.

Duo – yaxshi so‘z, yaxshi odamla duo qiladi.

“Mehnat mehnatning tagi rohat” maqolining izohi so‘ralganida, Rahima Qudratova ***Mehnat yaxshilik, mehnat qilsa rohat ko‘radi***, – tarzida javob qaytardi.

“Mehnatkash kishilar qanday bo‘ladi?” tarzidagi savolga bolalar ***yaxshi***, – deb javob berishdi.

Bola tafakkurining shakllanish davrida ikki muammo: yaxshilik va yomonlik o‘rtasida tanlov jarayoni kechadi. Bola kattalar yordamida ulardan birini tanlaydi. Kattalar uchun bu tushunchalar bir qarashda sodda tuyuladi. Biz masalaga psixolingvistik nuqtai nazardan yondashar ekanmiz, bu holatni bolaning lug‘at zaxirasi bilan bog‘laymiz. Chunki so‘z boyligi kam bo‘lgan bolalarda aynan shu holat kuzatiladi:

- Dunyoda qanday odamlar bor?
- ***Yaxshi, yomon.***
- To‘polonchi bola qanday bo‘ladi?
- ***Yomon.***
- Kishilar qanday bo‘lishlari kerak?
- ***Yaxshi.***

Tajriba jarayonida bolalardan “Sholg‘om” ertagi qaxramonlari tasvirlangan rasmlarga qarab, uni so‘zlab berish so‘raldi. Chunki ertak asosida savol-javob o‘tkazilganida, bola undagi qahramonlarning dialoglarini xotirada saqlab qoladi. Bu esa kitobda tasvirlangan suratlar yordamida ertak qahramonlarining so‘zlarini qayta hikoya qilib berishda qulayliklarni yuzaga keltiradi. Tinglangan ertak mazmunini rasmlar vositasida so‘zlab berish bola monologik nutqining rivojlanib borishiga muayyan darajada yordam beradi. Bu boradagi amaliy izlanishlar jarayonida quyidagi holatlar kuzatildi:

Farzona Jabborova ertakni rasmlar yordamida so‘zlab berishda undagi vaqealar ketma-ketligini to‘g‘ri, aniq ifodalashga intildi. Lekin ertak so‘ngida

“Sholg‘om sug‘urib olinadi” mazmunidagi jumlaning *Sholg‘om sug‘oriladi* tarzida ifodaladi. Nafosat Ataeva ham Zumrad va Qimmat haqidagi ertak voqealarini ketma-ket, aniq tushuntirishga bir oz qiynaldi, uning nutqida *keyin* so‘zi ko‘p takrorlandi.

Tajriba davomida olti nafar tarbiyalanuvchi, ya‘ni Farzona Jabborova (6 yosh), Rahima Qudratova (5 yoshu 10 oy), Hilolaxon Erkinova (5 yoshu 9 oy), Xondamir Mirziyodov (6 yoshu 3 oy), Murodjon Odilov (6 yosh) va Nafosat Ataeva (6 yosh) nutqining ravonligi va faolligi bilan alohida ajralib turdi. Sinov jarayonida ular bilan alohida suhbat o‘tkazildi. Bu bolalar suhbat chog‘ida “ising nima?”, “maktabga qachon borasan?”, “kelajakda kim bo‘lmoqchisan?” kabi umumiy savollarga o‘ziga xos tarzda javob berishdi. Muloqot jarayonida barcha bolalar o‘z ismlarini to‘g‘ri aytgani holda, maktabga kelasi kuzda chiqishlari haqida shunday deyishdi: *maktabga to‘rtinchida boraman* (Farzona Jabborova), “To‘rtinchi nima?” – deb so‘ralganida, *to‘rtinchi martda bo‘sa kerey*, – deb javob berdi. Tug‘ilgan kuni so‘ralganida, u: *tug‘ilgan kunim o‘tib bo‘gan, olti yoshimda*, – dedi. Rahima Qudratovadan onasining ish joyi so‘ralganida, u: *ishxonada*, – dedi. Kelajakda kim bo‘lishi so‘ralganida: *bank diriktiri*, – deb javob berdi. Buning uchun nima qilish kerakligi so‘ralganida, *yaxshi qiz bo‘lib, yaxshi o‘qish karak* – dedi. Hilolaxon Erkinovadan qachon maktabga borishi so‘ralganida, u: *bu yil sentyabrda, kelotirg‘an sentyabrda*, – deb javob qaytardi. Kelajakda kim bo‘lishi so‘ralganida, u: *endakrinolg*(endokrinolog), – deb javob qaytardi. Suhbat davomida uning onasi shu kasb egasi ekanligi ma‘lum bo‘ldi. Xondamir Mirziyodov barcha savollarga to‘g‘ri va aniq javob berdi. Murodjon Odilov maktabga qishda chiqishini aytdi. Nima uchun qishda chiqishi so‘ralganida, u: *qishda oltiga kiraman-da!* – deb javob berdi. Bu bolaning nutqida “oddiy” sifati ko‘p uchradi. Quyida u bilan bo‘lgan dialogik suhbatdan ayrim namunalarni keltiramiz:

– Katta bo‘lganingda kimga o‘xshashni xohlaysan?

– *Ayamga.*

– Nima uchun?

– *O‘zi.*

– Onang qanday odam?

– *Oddiy.*

Kino, multfilmlar ko‘rasanmi?

– *Ha.*

– Unda nimalar ko‘rsatiladi?

– *Oddiy odamla.*

– Oddiy odamlar qanday bo‘ladi?

– *Yaxshi, yomon bo‘lishi mumkin.*

– Ular nima qilishadi?

– *Har xil ishla: moshina sotishi mumkin, pul tarqatishi mumkin, skoriy bo‘lishi mumkin, politsiya bo‘lishi mumkin.*

– Bog‘chada o‘rtoqlaring bilan qanday o‘yinlar o‘ynaysan?

– *Oddiy: tutarim, yashinmahoq.*

– Katta bo‘lganingda kim bo‘lmoqchisan?

– *Skoriy.*

– U nima qiladi?

– *Odamlani tekshiradi.*

Bu borada olib borilgan tajribaviy kuzatuv natijalari shuni ko‘rsatdiki, bola 5 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan davrda biron-bir ertak yoki maqol yuzasidan fikr yuritishda deduktiv (fikrning umumiylikdan xususiylikka yo‘nalishi) hamda induktiv (fikrning xususiylikdan umumiylikka yo‘nalishi) usullardan foydalanadi. Bunda bola asosan ijtimoiy muhitga xos xususiyatlardan kelib chiqqan holda fikrlashga harakat qiladi.

1.2. Bolaning so‘z qo‘llash jarayonida diglossiya hodisasining namoyon bo‘lishi

Ijtimoiylashuv jarayonida bolaning ona tiliga oid nutqiy me‘yorlarni o‘zlashtirish ko‘nikmasi so‘zlashuv uslubiga asoslangan verbal muloqot asosida shakllanadi. Nutqiy xulq va lisoniy qobiliyatning shakllanishi natijasida bola aqlan rivojlanib, atrof-muhitdagi voqea-hodisalarning mazmun-mohiyatini bilishga

intiladi. Bolada nutqning rivojlanishi uning ruhiy jihatdan ham takomillashuvini ta'minlashga xizmat qiladi. Bu esa o'z navbatida bola ma'naviy saviyasi va intellektual salohiyatining ortib borishiga yordam beradi. K.D.Ushinskiyning pedagogikaga oid tadqiqotida bolani ona tiliga xos so'zlar orqali tarbiyalash masalasiga alohida urg'u beriladi. Olimning ta'kidlashicha, xalqqa xos xususiyatlar dastlab ona tilida o'z ifodasini topadi. Bolaning shaxsiyati, bilimi, malakasi va ma'naviy qiyofasi shu til ta'sirida shakllanadi⁹.

Demak, ona tilidagi verbal muloqot bolaning nutq me'yorlarini o'zlashtirishida asosiy vosita vazifasini o'taydi. N.S.Sayidirahimovanning maktabgacha yoshdagi o'zbek bolalar nutqiga xos lingvistik xususiyatlar talqiniga bag'ishlangan tadqiqotida buning sababi shunday izohlanadi: "...Ular grammatik qoidalarni o'qib, tushunib yodlarida saqlab qolmaydilar. Ular ot, fe'l, sifat, olmosh, kelishik kabi grammatik kategoriyalarning borligini ham, ular nima ekanligini ham bilmaydilar. Shu sababli bolalar grammatikaning juda ko'p qo'llanadigan, eng sodda qoidalarini kattalardan o'zlashtirib boradilar"¹⁰.

Kichik yoshdagi bolalar nutqini o'stirishga doir metodik qo'llanmada oila muhiti hamda ta'lim tarbiya muassasalarida muloqot jarayonini yuzaga keltirish maqsadida foydalaniladigan usul va vositalarning ahamiyatiga alohida to'xtalib o'tiladi. Unda ta'kidlanishicha, maktabgacha yoshdagi bolalar hamda boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun sodda va qiziqarli o'yinlar, hisoblashlar, tez aytishlar, she'rlar, ertaklar kerak. Bolalar uchun nashr etiladigan kitoblar atrof-muhitni, hayotni bilish va uni sevishga yordam beradi, murg'ak qablarning zehni, ongini yuksaltiradi, turmushni sodda va haqqoniy ravishda tasvirlaydi, bolalarning lug'at boyligini oshiradi, nutqini o'stiradi¹¹.

Ma'lumki, ertak syujeti kattalar tomonidan maktabgacha yoshdagi bolalarga 4 yoshgacha bo'lgan davrda og'zaki tarzda bayon etiladi. Bola 5 yoshga qadam qo'yishi bilan ertak matni unga kitoblardan ham o'qib eshittiriladi. Chunki

⁹ Ушинский К.Д. Танланган асарлар. - Тошкент: Ўқувпеддавнашр, 1959. - 398 б.

¹⁰ Сайидирахимова Н.С. Мактабгача ёшдаги ўзбек болалар нутқининг лингвистик хусусиятлари. Филол. фан. номз. ... дис. - Тошкент, 2004. - Б. 75.

¹¹ Asqarova M., Matchonov S. va b. Kichik yoshdagi bolalar nutqini o'stirish. - Toshkent: O'zbekiston, 2000. - B. 6.

bolalarni muloqotga jalb etishda faqat so‘zlashuv uslubidan foydalanishning o‘zi etarli bo‘lmaydi. Ularning bir-birlari va kattalar bilan muloqotda bo‘lishlari, kommunikatsiya jarayonida o‘z fikrlarini erkin, tushunarli bayon qilishlarini ta‘minlashda bolalar badiiy adabiyoti asosiy manba hisoblanadi. Kattalar tomonidan hikoya qilingan va o‘qib berilgan badiiy asarlarni idrok etish orqali bolaning lug‘at zaxirasi yanada ortadi. Shu bilan birga, aniq, ravon, qiziqarli uslubda yozilgan asar bolaning ruhiyatiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi va uning fikrini teranlashtirib, dunyoqarashini kengaytiradi.

Bolalar uchun mo‘ljallangan kinofilm va multfilmlar, teleko‘rsatuv hamda radioeshittirishlarni tinglash yoki tomosha qilish orqali ham ularning lug‘at zaxirasi ma‘lum darajada yangi so‘zlar bilan boyib boradi. Kinofilm va multfilmlardan foydalanishning afzallik jihati shundaki, ekran orqali bola ona tilida so‘zlayotgan odamning nutqi, ohangi, odati, madaniyati, o‘zini tutishi va his-tuyg‘ularini sezgilar yordamida idrok etadi. Radioeshittirishlar esa bola so‘z boyligini oshirish bilan birga, unga kattalar tomonidan o‘qib berilgan kitoblarda uchragan leksik birliklarning xotirada qayta tiklanishi va yanada mustahkam saqlanib qolishini ta‘minlaydi. Biroq bola ularni tinglash jarayonida eshitish sezgisi orqali diglossiya (jamiyatda mavjud bo‘lgan ikki til yoki tilning ikki shaklidan foydalanish) hodisasiga duch keladi.

Tilshunos N.Mahmudov bu xususda quyidagicha mulohaza bildiradi: “Tilning lug‘at boyligini yetarli darajada bilmasdan turib, madaniy nutq tuzish mumkin emas. So‘zlarning semantik strukturasi, undagi taraqqiyot, leksik sistemadagi so‘zlarning bir-biriga munosabati kabi masalalardan boxabar bo‘lmasdan turib, tilning behad boy so‘z xazinasidan konkret nutq uchun eng keraklisini tanlash mushkul. Bu xazinaning hayotini leksikologiya o‘rganadi. Nutq madaniyati so‘zlarni tanlashda ayni shu leksikologiyaning ma‘lumotlariga tayanadi”¹².

Albatta, 4-5 yoshgacha bo‘lgan bolalarning nutqida she‘r matnidagi adabiy nutq uslubiga oid ayrim leksik birliklar fonetik o‘zgarishga uchragan holda ifodalanadi. Bu boradagi kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida nutq o‘stirishga

¹² Маҳмудов Н. Нутқ маданияти ва бошқа фанлар // Ўзбек тили ва адабиёти. - Тошкент, 2007. - № 1. - Б. 10-11.

doir metodik qo'llanmada bolaning ota-onasi, maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyachilari, umuman, uning yaqinlari tomonidan quyidagi usullarni amalda tatbiq qilish tavsiya etiladi:

1. So'zlarni bo'g'in va tovush tomondan tahlil qilish.
2. Bo'g'inlardagi harflarning tovush tomondan to'g'ri talaffuz qilinishiga e'tibor berish, ya'ni fonematik eshitishni rivojlantirish¹³.

Bolalar nutqi ustida sotsiolingvistik va psixolingvistik aspektda olib borilgan izlanish natijalari ular bilan muloqot jarayonida yuqorida qayd etilgan usullarni amalda qo'llash nihoyatda muhim ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi. Quyida ushbu fikrning isboti sifatida ayrim misollarni keltiramiz: Hilolaxon Erkinova (3 yoshu 6 oy)ning nutqida qorbobo haqidagi she'riy misralar

Qorbobojon, qorbobo,

Sog'valari bor bobo...

tarzida aks etadi. Bu o'rinda "sovg'alari" so'zining bola tomonidan ifodalanishida kontakt metateza hodisasi yuz bergan. Yuqoridagi singari fonetik o'zgarishlarning kuzatilishi bola nutq a'zolarining so'zlarni to'g'ri talaffuz etishga to'la moslashmaganligini ko'rsatadi. Ba'zan bunday fonetik hodisalar kattalarning bolani "Tili shirin" deb erkalab, muloqot jarayonida o'z nutqlarini uning talaffuziga moslashtirgan holda ifoda etishlari tufayli ham yuzaga kelishi mumkin.

Tadqiqotlarda qayd etilishicha, erkalovchi so'z inson fiziologiyasiga kuchli ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Erkalanayotgan paytda qon aylanishi yaxshilanadi. Qondagi kislorod miqdori 10-15% ga oshib, qon bosimi mo'tadillashadi, nafas olish engillashadi¹⁴. Bunda nafaqat insonning jismoniy, balki ruhiy holatida ham o'zgarish yuz beradi. L.F.Ostrovskaya mazkur masala xususida quyidagilarni yozadi: "Kichkintoy yaqinlarining erkalashlarini his etsa, ularning jilmayishlarini ko'rsa, muloyim ovozlarini, bir-birlariga va unga xayrixohlik munosabatlarini sezsa, u ijobiy emotsional hislarni boshidan kechiradi"¹⁵. Shu asosda yuzaga keluvchi psixofiziologik holatlar bolaning nutqiy xulqida ham namoyon bo'ladi.

¹³ Asqarova M., Matchonov S. va b. Kўrsatilgan manba. - B. 15.

¹⁴ Қаранг: Мўминов С.М. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари. Филол. фан. док. ... дис. - Тошкент, 2000. - Б. 113.

¹⁵ Островская Л.Ф. Мактабгача ёшдаги болаларни ахлоқий тарбиялаш. - Тошкент: Ўқитувчи, 1989. - Б. 42.

Bu boradagi kuzatuvlar jarayonida Hojimurod Erkinov (3 yoshu 7 oy) hamda Salohiddin Asqarov (4 yoshu 2 oy)ning nutqida she'r matni quyidagicha ifodalandi:

Qorbobom oppo,

Peshanasi yalpo,

Hassasi uzuncho,

Qopi to'la o'yincho¹⁶.

Bundan anglashiladiki, bolalar nutqida yuqorida ajratib ko'rsatilgan so'zlar oxiridagi [-q] tovushining tushirib qoldirilishi natijasida apokopa hodisasi yuz bergan. Bolalar nutqida kuzatilgan ushbu fonetik hodisa Gurlan shevasiga xos xususiyat hisoblansa-da, she'riy matnlarning mazkur shevada so'zlashuvchi kattalar tomonidan ifodalanishida bu kabi holatlar kuzatilmaydi. Go'dak esa mazkur yosh davrida adabiy til qoidalarini o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'lmaganligi bois she'r matniga oid so'zdagi tovushlarni shevaga xos shaklda aks ettiradi. Chunki kichik yoshdagi bola tomonidan ayrim so'zlarning talaffuzga ko'ra noto'g'ri ifodalanishida u bilan muayyan shevada muloqotga kirishuvchi otanonalar, atrofdagi kishilar, maktabgacha ta'lim muassasasida esa tarbiyachilarning ta'siri kattadir.

Metodik adabiyotlarda ta'kidlanganidek, o'quvchilar so'z boyligini oshirishning amaliy maqsadini ilmiy asosda tuzish o'zbek tilidagi so'zlarning qo'llanish darajasiga ko'ra farqlash, buning sabablarini tushunib etish va amaliyotni ilmiy asoslarga bo'ysundirishni taqozo qiladi. Bu jihatdan o'zbek tili lug'at boyligi ikki katta guruhga ajratiladi:

1. Qo'llanilish doirasi keng, chegaralanmagan, faol so'zlar /keng iste'moldagi so'zlar/.
2. Qo'llanilish doirasi chegaralangan, ma'nosi xususiylik va nozikliklarga ega bo'lgan so'zlar /tor iste'molli so'zlar/.

Olimlarning ta'kidlashicha, 3-sinfni tugatgan o'quvchining yozma nutqida shu

¹⁶ Диссертациянинг 1.2. бўлимида таҳлил қилинган шеър матнига оид материаллар 2004-2007 йилларда Тошкент шаҳридаги 118-464-сон мактабгача таълим муассасалари тарбияланувчилари нутқи устида олиб борилган бевосита кузатувларга кўра қайд этилган.

davrga qadar o'zlashtirilgan yordamchi so'zlar bilan birgalikda qo'llanuvchi barcha leksik vositalarning 36% ini ot leksemalar, 22% ini fe'l leksemalar, 6% ini sifat leksemalar, 8-9% ini olmosh leksemalar, 6-7% ini ravish leksemalar, 1-2% ini son leksemalar tashkil etadi.

Mazkur tadqiqotda qayd etilishicha, boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqida sifat turkumiga xos leksemalar katta o'rin tutmasa ham, sinfdan sinfga o'tish mobaynida jadallik bilan ortib boradi. Shunga ko'ra, ularning miqdor ko'rsatkichi 1-sinfda taxminan 2%, 3-sinfda 6%, 5-sinfda 8%, 6-9-sinflarda 9% dan iborat bo'ladi. Maktab o'quvchilari nutqida olmosh turkumiga oid leksemalarning qo'llanilish chastotasi muhim ahamiyatga ega bo'lib, 1-2-sinflarda 7-8% ni tashkil qilsa, 9-sinfda deyarli ikki barobar, ya'ni 14-15% ga ortadi. Bu holat yuqori sinf o'quvchilarining nutqiy faoliyatida ular tomonidan so'roq, inkor, bo'lishsizlik va kishilik olmoshlarining keng doirada ishlatilishi natijasida yuz beradi. Maktab o'quvchilari nutqida qo'llanadigan ravish turkumiga xos leksemalarning miqdor ko'rsatkichi 1-sinfda 4%, 4-sinfda esa taxminan 7% ga etadi. Biroq boshlang'ich sinfni tugatgan bolaning so'z zaxirasida ravish leksemalarning o'sish sur'ati keskin pasayib, ularning miqdori 7,5% dan oshmaydi. Shunga qaramay, yuqori sinf o'quvchilari tomonidan ravish turlarining ishlatilishida ularning yosh xususiyati va bilim saviyasi bilan bog'liq holda ayrim o'zgarishlar kuzatiladi. 5-sinfdan 9-sinfgacha bo'lgan davrda o'quvchilar tomonidan foydalaniladigan o'rin va payt ravishlarining miqdori kamayib, holat va miqdor-daraja ravishlarining soni ortib boradi¹⁷.

Albatta, bu borada olinadigan tadqiqot natijalari nisbiy xarakter kasb etadi. Chunki bolalar lug'atining faollashuvi ko'p jihatdan ularning nutqiga xos sotsiopsixolingvistik xususiyatlarga bog'liq. Bolalar tomonidan til lug'at tizimining o'zlashtirilish jarayonida muloqot muhitiga bog'liq holda yuzaga keluvchi murakkabliklar boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqida ko'p kuzatiladi. Ularning nutqida uchraydigan aksariyat leksik muammolar diglossiya hodisasi asosida namoyon bo'ladi.

¹⁷ Львов М.Р. Кўрсатилган мақола. - С. 7-9.

Biz bu jarayonning yuzaga kelishida ta'sir birliklarining ahamiyatini aniqlash maqsadida 7-8 yoshli bolalar nutqi ustida tajriba o'tkazdik¹⁸. Sinov jarayonida Gurlan shahridagi 20-son umumiy o'rta ta'lim maktabining o'n olti nafar 2-sinf o'quvchisi ishtirok etdi. Dastlab tajriba ishtirokchilariga og'zaki nutq orqali Toshkent shahar shevasida taqdim etiladigan 6 ta so'zni diqqat bilan tinglab, ularni adabiy tilning kitobiy uslubiga xos shaklda yozish kerakligi e'lon qilindi.

Sinov jarayonida Toshkent shevasida keng qo'llaniladigan "kotta", "erte", "boxcha", "peyla", "so'vug'", "kopto'v" so'zlaridan material sifatida foydalanildi. O'quvchilar tomonidan har bir so'zning standart tilga xos shakli yozma ravishda qayd etilishi uchun 10 soniyadan vaqt ajratildi.

Bu boradagi amaliy izlanishlar jarayonida to'plangan misollar tahlili sinalluvchilarning e'tiboriga havola qilingan ayrim leksik birliklar ular tomonidan tajriba shartiga muvofiq tarzda yozilganligini ko'rsatadi. Jumladan, tajriba ishtirokchilariga "erte" tarzida taqdim etilgan so'z barcha o'quvchilarning yozma nutqida *ertak* shaklida ifodalangan. Chunki ular mazkur leksemaga teleradiokanallarda bolalar uchun namoyish etiladigan dasturlarni tinglash va kitob o'qish jarayonida ko'p duch kelganlar.

O'quvchilar berilgan topshiriqni to'g'ri bajarishga harakat qilgan bo'lishlariga qaramay, ularning javoblarida imloviy xatolar ham kuzatiladi. Masalan, adabiy tilda "bog'cha" shaklida ifodalangan leksema Javohir Abdullaev, Mahmud SHavkatov hamda Madina Qayumovaning yozma nutqida *bohcha*, Sardor To'laganov va Ahmadjon Normammedovning yozma nutqida esa *boqcha* tarzida qo'llangan.

Ko'rinadiki, bunda bolalar "bog'cha" so'zining adabiy til va shevada turlicha ifodalanishini tushunganlar. Lekin ular Gurlan shevasi vakillarining og'zaki nutqida mazkur leksemaning adabiy tildagi varianti ko'p ishlatilmaganligi uchun so'zni yozishda orfografik xatoga yo'l qo'yganlar.

Ma'lumki, o'zbek tilida "piyola" tushunchasini anglatuvchi bunday so'z shakli mavjud. Biroq so'zni bu shaklda aks ettirish Gurlan shevasiga xos xususiyat

¹⁸ Tajriba 2007 yil 24 fevralda ўtkazilgan. Sinov natijalari aks etgan jadvallar 2-ilovada kайд қилинган.

hisoblanadi. Biz bu soʻzni tajriba ishtirokchilariga taqdim etishda “peyla” tarzida talaffuz qilgan edik. Chunki Gurlan shevasida soʻzning bu shaklidan keng foydalaniladi.

Demak, bola biz taqdim etgan nutqiy birlikning shevaga xos variant ekanligini anglab yetgani holda, soʻzning *piyla* tarzidagi ifodasini adabiy tilga xos shakl sifatida talqin qilgan. Bu holat mahalliy shevada soʻz qay tarzda talaffuz qilinsa, shunday yozilishi natijasida yuzaga kelgan.

Diglossiya hodisasining bola leksikoniga taʼsiri natijasida namoyon boʻluvchi yuqoridagi kabi holatlar ingliz tilini oʻzlashtirayotgan 11-12 yoshli oʻzbek bolalar nutqi ustida oʻtkazilgan sinov jarayonida ham kuzatildi. Tajribada Gurlan shahridagi koʻzi ojiz va zaif koʻruvchi bolalar maxsus maktab-internatining yetti nafar 5-sinf oʻquvchisi ishtirok etdi. Sinov jarayoni ikki bosqichdan iborat boʻldi. Birinchi bosqich yozma ravishda¹⁹, ikkinchi bosqich ogʻzaki tarzda amalga oshirildi. Shu jihatdan jamiyatning kelajagi boʻlgan yoshlarga xorijiy tillarni oʻrgatish, ularning ikkinchi tildagi ogʻzaki va yozma nutqini rivojlantirish bugungi kunning muhim masalalaridan biri hisoblanadi.

Birinchi bosqichda oʻquvchilarga orfografik jihatdan notoʻgʻri ifodalangan 5 ta soʻz tarqatma material sifatida berildi va ulardan taqdim etilgan lugʻaviy birliklarning toʻgʻri variantini yozib koʻrsatish soʻraldi. Bunda “teecher”, “mather”, “famely”, “to rid”, “Vednesday” soʻzlaridan material sifatida foydalanildi²⁰.

Bu bosqichda olingan natijalar ikki nafar oʻquvchining yozma nutqida *teacher, mother, family, to read, Wednesday* tarzida ifodalangan leksemalar berilgan vazifaning ular tomonidan toʻgʻri bajarilganligini koʻrsatdi. Mazkur holat Ilhom Ortiqov va Muxlisa Yoʻldashevalarning javoblarida kuzatildi. Besh nafar oʻquvchi tarqatma material sifatida taqdim etilgan aksariyat soʻzlardagi imloviy xatolarni aniqlashga qiynalgan. Masalan, Baxtiyor Sobirovning yozma nutqida “teacher”, “mother”, “to read”, soʻzlari *tiche, maza, tu rid* shaklida ifodalangan. Bu kabi xatolar asosan ingliz tilida soʻz qanday talaffuz qilinsa, tajriba

¹⁹ Tajribaning birinchi bosqichida kўzi ojizlar uchun mўljallangan bўrtma nuqtali maxsus alifbodan foydalaniilgan.

²⁰ Jʻorayev L., Xan S., Kamolova L. Fly High. Ingliz tili darsligi. 5-sinf. - Toshkent: Oʻqituvchi, 2007. - 200 b.

ishtirokchilarining yozma nutqida ham shu tarzda aks etishi natijasida yuz berganligi anglashildi.

Ikkinchi bosqichda bolalarga 8 ta nutqiy qurilma o‘qib eshittirildi va ularga jummalarni davom ettirib, tugallangan gap sifatida shakllantirish kerakligi aytili. Tajriba ishtirokchilariga taqdim etilgan leksik-grammatik materiallar¹ va sinaluvchilarning javoblari quyidagi jadvalda aks ettirilgan:

Bu bosqichda erishilgan natijalarga ko‘ra, ikki nafar o‘quvchi hozirjavoblighi bilan ajralib turgan bo‘lsa-da, ingliz tilidagi so‘z boyligining kamligi tufayli bir jumlani davom ettirishda ikki tilga xos lug‘aviy birlikni aralash holda qo‘llagan: bir nafar o‘quvchi “I go to ...” tarzida taqdim etilgan jumlani to‘ldirish maqsadida **house** (uy) leksemasining o‘rniga uning rus tilidagi ma‘nosini aks ettiruvchi **dom** so‘zini ishlatgan. Bir nafar o‘quvchi esa “Today the weather is...” tarzida berilgan jumlani tugallangan gap sifatida shakllantirishda “issiq” so‘zining ingliz tilidagi ma‘nosini ifodalovchi “hot” leksemasini topa olmaganligi sababli uning o‘zbek tilidagi muqobilidan foydalangan. Ikki nafar o‘quvchi nutqni tushunish darajasi sust ekanligi tufayli topshiriqni to‘liq bajara olmagan.

Albatta, ta‘lim samaradorligiga ta‘sir ko‘rsatuvchi bu kabi holatlar ko‘zi ojiz bolalar tomonidan maktab dasturida belgilangan ma‘lumotlarni talab darajasida o‘zlashtirilishiga imkon bermaydi. Mazkur masala nafaqat bolaning kognitiv taraqqiyoti, balki uning lisoniy ijtimoiylashuv² jarayoni bilan ham bevosita bog‘liq. bog‘liq.

Bolalar nutqida hududiy va ijtimoiy belgilar asosida yuzaga keluvchi lug‘aviy vositalarning ayrimlari ularning kommunikativ faoliyatida shevalararo integral, ba‘zilari esa differensial semaga ega bo‘ladi. O‘zbek bolalar nutqiga xos leksik dialektizmlarni semantik xususiyatlariga ko‘ra quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

- a) narsa-buyum va shaxs nomini anglatuvchi so‘zlar;
- b) ish-harakatning nomini ifodalovchi so‘zlar;
- v) narsa-buyumning belgisini bildiruvchi so‘zlar;

¹ Kўrsatilgan manba. - 200 b.

² Қаранг: Беликов В.И., Крысин Л.П. Социоллингвистика. - М.: 2001. - С. 203.

g) immitatsiya usuli asosida hosil bo'lgan so'zlar.

Bolalarning til lug'at tizimidan foydalanish jarayonida kuzatiladigan ayrim leksik xususiyatlar diglossiya va sun'iy bilingvizm hodisalari ta'sirida namoyon bo'ladi. Bolalar tomonidan bir tilning mavjudlik shakllari yoki ikki tilga xos so'zlarning o'zlashtirilish jarayonida yuzaga keluvchi sotsiolingvistik xususiyatlar savodxonlik bilan bog'liq muammolarni tadqiq etishda muhim ahamiyatga egadir.

II BOB. BOLANING PERSIPTIV LUG'ATI

2.1. Leksik o‘yin jarayonida bolaning nutqiy faoliyati

Kichik yoshdagi bolaning faoliyati rang-barang bo‘lib, u kun davomida biron-bir mashg‘ulot bilan shug‘ullanadi, kattalarning topshiriqlarini bajarishga urinadi, ammo hammadan ko‘ra ko‘proq o‘yinlar o‘ynashni yoqtiradi. Chunki o‘yin bola uchun eng yaqin, sevimli mashg‘ulot hisoblanadi. “Bolada o‘yinga bo‘lgan ishtiyoq kuchli bo‘lib, bu ishtiyoqni qondirish usullarini bilish kerak. Bolaga o‘yin uchun muayyan vaqt beribgina qolmay, uning hayotiga o‘yinni singdirish lozim. Bolaning butun hayoti o‘yindir”¹.

Adabiyotlarda qayd etilganidek, o‘yinlar bolani kelgusi hayotga tayyorlashda asosiy vositalardan biri sifatida xizmat qiladi. N.M.Aksarinaning ta’kidlashicha, o‘yin faoliyati o‘z-o‘zidan vujudga kelmaydi, bu jarayon uch sharoit mavjud bo‘lishini taqozo etadi:

a) bola lisoniy ongida uni qurshab turgan voqelik to‘g‘risidagi xilma -xil taassurotlarning tarkib topishi;

b) har xil ko‘rinishdagi o‘yinchoqlar va tarbiyaviy ta’sir vositalarining muhayyoligi;

v) bolaning tez-tez kattalar bilan muloqot va muomalaga kirishuvi².

Ma’lumki, o‘yin faoliyatida kuzatiladigan muloqot jarayonida bolaning shaxsiy fazilatlari hamda xarakter-xususiyatlari bevosita uning nutqiga bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Bolaning perseptiv lug‘ati (idrok etish faoliyati natijasida yuzaga keluvchi so‘z shakllari lug‘ati) qay darajada boy bo‘lsa, lisoniy imkoniyatlardan unumli foydalangan holda fikr almashish jarayoni ham shu darajada qulay va oson amalga oshadi. Nutqi yaxshi o‘sgan bola ko‘pchilikka tez qo‘shilib, tengqurlari bilan muloqotga kirishadi. Bu esa bolaning ekstrovert (muomalaga tez kirisha oladigan)³ shaxs sifatida shakllanishiga sabab bo‘ladi. Aksincha, nutqi yaxshi o‘smagan bola o‘rtoqlari bilan o‘ynashga, muloqotga

¹ Солихова М., Ғозиева С. Мактабгача тарбия ёшидаги болалар учун халқ ўйинлари. - Тошкент: Ўқитувчи, - Б.5-6.

² Қаранг: Ғозиев Э. Психология (ёш даврлари психологияси). - Тошкент: Ўқитувчи, 1994. - Б. 99.

³ Қаранг: Мўминов С. Коммуникация танишув босқичининг социопсихоллингвистик хусусиятлари // Илмий хабарлар. - Фарғона, 1996. - № 1. - Б. 113.

kirishishga qiynaladi. Bu uning shaxsiyatiga kuchli ta'sir etadi. Natijada bola tortinchoq va uyatchan bo'lib qoladi. Nutqida muayyan darajada kamchiligi bo'lgan bolaning ota-onasi uning so'zlarini yaxshi tushunadi. Shu tufayli u oilaviy muloqotda qiyinchiliklarga duch kelmaydi. Bu esa bolaning har tomonlama rivojlanishi uchun etarli bo'lmaydi.

Demak, bolalar nutqida uchraydigan sotsiopsixolingvistik xususiyatlarni nafaqat uning ota-onasi, balki atrofdagilar ham yaxshi anglab etishlariga erishish lozim. Chunki bolada kuzatilgan tortinish yoki uyalish hissi autizm (ijtimoiy muloqotdan qochish) hodisasining yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin.

Nutqiy muloqot orqali bolada ona tiliga xos leksik birliklarni o'zlashtirish ko'nikmasini shakllantirishga yunaltirilgan tajriba usullari nafaqat pedagogikaga oid adabiyotlarda, balki sotsiolingvistik va psixolingvistik tadqiqotlarda ham qayd etilgan. Jumladan, S.G.Ivamuraning maktabgacha yoshdagi bolalar nutqi leksikasi tadqiqiga doir monografiyasida nutqni o'stirish va rivojlantirishga yo'naltirilgan mashq o'yinlar tahlil qilingan bo'lib, unda bolalarning nutqiy muloqotga kirishuvida o'yin vaziyatlarining ahamiyati xususidagi fikrlar mujassamlangan. Mazkur tadqiqotda qayd etilishicha, o'yinlar bola lug'at zaxirasining yangi so'zlar bilan boyishi va unda kuzatuvchanlik qobiliyatining shakllanishi asosida o'z nutqini tuzatish ko'nikmasining hosil bo'lishiga ma'lum darajada yordam beradi.

Zamonaviy xorijiy tadqiqotlarda "o'z-o'zini tuzatish" tushunchasi ostida kommunikativ muvaffaqiyatsizlikning tuzatilishida bolaning qobiliyati nazarda tutiladi. Kommunikativ o'z-o'zini tuzatish bolaning ilk muloqotga kirishuv davriga to'g'ri keladi. Bola nutqining o'zi va o'zgalardan tomonidan tuzatilishi muayyan xususiyatlariga ko'ra quyidagicha tasniflangan:

I. O'z tashabbusiga ko'ra tuzatish:

- a) TT to'g'ri tuzatish (o'zgalarning ta'sirisiz);
- b) O'T1 o'zgalarning tuzatishi (kattalar tashabbusiga ko'ra);
- v) O'T2 o'zgalarning tuzatishi (kattalarning aynan tuzatishi);

II. Bolalar o'z-o'zini tuzatishi tilning me'yoriy munosabatlariga ko'ra:

a) me'yoriy bo'lmagan lisoniy dalillarning me'yoriy birliklar bilan almashtirilishi;

b) "aksincha o'z-o'zini tuzatish";

v) okkazonalizmlarning shu turdagi so'zlar bilan almashtirilishi.

III. O'z-o'zini tuzatish ob'ektiga ko'ra:

a) fonetik;

b) grammatik;

v) so'z yasalishi;

g) morfologik;

d) sintaktik.

Kattalar tomonidan bola nutqini tuzatish tasnifi:

I. TTT to'g'ridan to'g'ri tuzatish (me'yoriy variantga almashtirish taklifi kiritiladi).

II. O'TT o'zgaralar tomonidan tuzatilishi (kattalarning bola nutqidagi xatolarga munosabati, me'yoriylikka erishishga qaralishi):

a) qayta so'rash (kattalarning savol bilan murojaati);

b) bolaning nutqiga tanbeh berish;

v) bolaning nutqiy xatosini ko'rsatish;

g) bolaning xatosini tengdoshi qilgan xato bilan qiyoslash;

d) analogik so'z yasash modeli orqali tuzatish taklifi.

Yuqoridagi kabi usullardan foydalanish bevosita muloqot tarzida amalga oshadi. Bolalarning lug'at zaxirasini me'yoriy nutq birliklari bilan boytish maqsadida amalga oshiriladigan kommunikatsiya jarayoni bilvosita muloqot shaklida namoyon bo'lishi ham mumkin.

Kichik yoshdagi bolaning ta'lim-tarbiyasi, umuman, hayotiy faoliyatini yo'lga qo'yishda o'yinning ahamiyati kattadir. O'yin jarayonida bolaning atrof -muhit haqidagi tushuncha va tasavvurlari kengayib, voqelikka munosabat bildira olish qobiliyati shakllanadi. Shu asosda u narsa-hodisalarning o'ziga xos xususiyatlarini bilib boradi. Bola tevarak-atrofdan kuzatilgan narsa-buyum hamda voqea-hodisalar haqidagi ma'lumotlarni o'yin orqali o'zlashtirib, har xil harakatlarni bajaradi,

ko‘rgan-bilganlarini o‘zicha talqin qilishi natijasida ifodalanayotgan hodisalarning mazmun-mohiyatini yaxshiroq tushunib olishga intiladi. V.V.Dementev bu boradagi tadqiqotida maktabgacha yoshdagi bolalar o‘yinlarini quyidagi tiplarga ajratadi:

1. **Kommunikativ o‘yinlar.** Bu tipdagi o‘yinlar tilga bog‘liq yoki bog‘liq emasligiga ko‘ra o‘zaro farqlanadi. Ular o‘rtasidagi tafovut shundan iboratki, til bilan bog‘liq kommunikativ o‘yin bolaga ijodiy qobiliyatini erkin holda namoyon etish imkonini beradi. Tilga bog‘liq bo‘lmagan o‘yin esa uning faoliyatini muayyan qoidalar bilan cheklab qo‘yadi. Bir necha qoidalarni o‘z ichiga oluvchi kommunikativ o‘yinlar musobaqa tarzida o‘tkaziladi. Odatda, muayyan qoidalar asosida amalga oshiriladigan o‘yin jarayoni tartibli kechadi.

2. **Nokommunikativ o‘yinlar.** Bunday o‘yinlarda qoidalar mavjud bo‘lmaydi.

Ba‘zan bolalarning tilga bog‘liq bo‘lmagan kommunikativ o‘yin faoliyatida ham spetsifik xususiyatlar yuzaga chiqadi. Ular bolaning o‘yinga nom berish jarayonida yaqqol aks etadi: Hojimurod Erkinov (4 yoshu 10 oy) o‘rtog‘iga: **Drsh-drsh o‘yniyimizmi?** – deb murojaat qiladi. Boladan “Drsh-drsh” qanday o‘yin ekanligi so‘ralganida, u mazkur faoliyat turining boshni boshga urish orqali amalga oshirilishini harakat yordamida tushuntirmoqchi bo‘ladi.

Bola kattalarning turmush tarzi, his-tuyg‘ulari, o‘zaro muomala va muloqotga kirishish xususiyatlarini, o‘ziga va o‘zgalarga, atrof-muhitga munosabatini yaqqol voqelik sifatida aks ettirish maqsadida turli xil o‘yinchoqlar va ularning vazifasini o‘tovchi narsa-buyumlardan keng foydalanadi. U mustaqil holatda o‘ynayotganida, nutqiy faoliyat orqali muloqotga kirishish xususiyatini yuzaga chiqaradi. Muxlisa Mullajonova (3 yoshu 9 oy) o‘yin chog‘ida doimo onasi tomonidan o‘ziga nisbatan aytilgan so‘zlar bilan o‘yinchoq quyonchasiga, qo‘g‘irchoqlariga murojaat qiladi. Hilolaxon Erkinova (5 yoshu 8 oy) esa qish faslida bog‘chaga ketishdan oldin uyda yasatilgan archaning oldiga borib, **Xayr, archa!** – deb u bilan xayrlashadi. Sarvarbek Umarov (3 yoshu 10 oy) nutqida ham yuqoridagi kabi misollarni ko‘plab kuzatish mumkin. U uxlashdan oldin “Mikki Maus” o‘yinchog‘iga: **Xayr, yaxshi uxab tur!** – deb xayrli tun tilaydi.

Albatta, bunday holatlarda bola jismlarga ijtimoiy mazmun ifoda etuvchi voqelik sifatida yondashadi. Ushbu fikrga dalil sifatida Sarvarbek Umarov (3 yoshu 10 oy) nutqida uchragan quyidagi misolni keltiramiz. U o‘yin jarayonida velosiped minib yurib, oyog‘i bir oz toliqib qolganidan so‘ng shunday deydi: ***Velsapetim charchab ketti, garajga opporib qo‘yaman-da, charchab bo‘sa haydab ketaman.***

Bolalar nutqiy faoliyatining rivojlanishida leksik o‘yinlar¹ning ahamiyati kattadir. Chunki bunday o‘yinlar bola nutqining o‘sishi, fikrlash qobiliyatining rivojlanishi, bilim saviyasining kengayishi va xotirasining yanada mustahkamlanishiga yordam beradi. Ular intellektual-psixologik o‘yin turi sifatida o‘quvchilar tomonidan ona tili lug‘at tizimining o‘zlashtirilish jarayoni bilan bog‘liq masalalarni yoritishda muhim o‘rin tutadi.

Bolalar nutqiga oid leksik-semantik xususiyatlar 7 yoshdan 11 yoshgacha bo‘lgan to‘qqiz nafar o‘quvchi o‘rtasida o‘tkazilgan “Men nimani o‘yladim?” nomli topishmoq tarzidagi intellektual-psixologik o‘yin jarayonida yaqqol namoyon bo‘ldi². Tajribada Toshkent shahridagi ijtimoiy fanlarga yo‘naltirilgan maxsus maktab, “Kamol avlod” bog‘cha-maktab majmuasi, 119-159-214-son umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 1-4-sinf o‘quvchilari ishtirok etdi.

Sinov jarayoni quyidagi tartibda amalga oshirildi: dastlab bolalarga o‘yin ishtirokchilaridan biri biror narsani o‘ylab, uning nomini emas, balki ta‘rifini og‘zaki nutq orqali adabiy tilda ifodalashi, boshqa ishtirokchilar esa ta‘riflangan so‘zni topib, yozma ravishda qayd etib borishlari kerakligi aytili. Shundan so‘ng javoblar aynan takrorlanmasligi uchun har bir sinaluvchiga o‘zi ta‘riflamoqchi bo‘lgan so‘zni boshqa ishtirokchilarga ko‘rsatmagan holda yozib borish vazifasi topshirildi. Mazkur leksik o‘yinning asosiy maqsadi bolalar tomonidan muayyan tushunchani ifodalovchi leksemaga berilgan ta‘rif orqali ularning nutqni idrok etish darajasini aniqlashdan iborat bo‘lib, ushbu tajriba usuli o‘quvchilar nafaol lug‘atining faollashuvini ta‘minlaydi, shu bilan birga, bolalarda ziyraklik,

¹ Asqarova M., Matchonov S. va b. Kichik yoshdagi bolalar nutqini o‘stirish. - Toshkent: O‘zbekiston, 2000. - B. 33.

² Тажриба 2008 йил 4 апрелда ўтказилган. Синалувчилар нутқида ифодаланган таърифлар аудиотасмага ёзиб олинган.

sinchkovlik sifatleri va mustaqil fikrlash qobiliyatining rivojlanishiga yordam beradi.

Interaktiv o‘yin jarayonida uch nafar o‘quvchi boshqa ishtirokchilarga nisbatan so‘z boyligining ko‘pligi, fikrlash doirasining kengligi va darsliklarda qayd etilgan ma’lumotlarni talab darajasida o‘zlashtirganligi bilan ajralib turdi. Jumladan, Hilolaxon Erkinova *su*v so‘zini yozib, quyidagicha ta’rifladi: *U hayot manbai, usiz odamlar yashay olmaydi. Kapalak* so‘zini esa, *o‘zi juda nozik, uzog‘i bilan ikki kun yashaydi* tarzida ifodaladi.

Tajriba davomida ayrim o‘quvchilar tomonidan muayyan tushunchaga ta’rif berish o‘rniga topishmoqlardan foydalanish holatlari ham kuzatildi. Zulfiyaxon Yusupovanning (8 yosh) nutqida *sabzi* tushunchasini aks ettirish maqsadida qo‘llangan *yer tagida oltin qoziq* topishmog‘i bunga misol bo‘la oladi. Ushbu dalil orqali bolaning topshiriqni bajarishda oson yo‘lni tanlashga intilganligi anglashildi. Bu holatda u barcha bolalarga xalq orasida keng tarqalgan topishmoq ostida yashiringan so‘zni topish uchun qulay vaziyatni yuzaga keltirgan.

Intellektual-psixologik o‘yin ishtirokchilari orasida maktabda rus tilida ta’lim oluvchi o‘zbek millatiga mansub bolalar ham mavjud bo‘lib, ular ona tilidagi muloqot jarayonida rus tiliga oid leksik birliklarni aralashtirmaslikka harakat qildilar. Masalan, Abdukarim Anvarovning nutqida *u odamlarning uzog‘ini yaqin qiladi* tarzida aks etgan ta’rif aksariyat o‘quvchilar tomonidan *mashina* so‘zining izohi sifatida to‘g‘ri talqin qilingan bo‘lishiga qaramay, qayd etilgan javoblar orasida *durbin, ko‘zoynak, kamera* va *telefon* so‘zlari ham o‘z ifodasini topgan.

Ko‘rinadiki, bolaning fikri nutq orqali to‘g‘ri ifodalangan bo‘lsa-da, o‘zbek tilidagi so‘z boyligining kamligi tufayli keltirilgan ta’rifning qisqa va nisbatan noaniqligi o‘quvchilarga vazifani bajarishda ma’lum darajada qiyinchilik tug‘dirgan. Shu sababli sinaluvchilardan olingan javob variantlarining aksariyat qismi ta’rifda nazarda tutilgan so‘zdan farq qiladi. O‘yin ishtirokchilari tomonidan u yoki bu tushunchaning ta’riflanish jarayonida ularning nutqiy foliyatida yosh davri bilan bog‘liq psixologik xususiyatlarga ko‘ra ayrim tafovutlar mavjudligi aniqlandi.

3-4-sinf o'quvchilari mulohaza yuritish ko'lamining qamrovi, ta'rifning dalillarga boyligi bo'yicha 1-2-sinf o'quvchilaridan ustunligini ko'rsatdi. Buning sababini ular turmush tajribasining kengligi va aqliy salohiyatining nisbatan yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

Leksik o'yin davomida o'quvchilarning nutqida kuzatilgan umumiy xususiyat shundaki, bolalar tomonidan tushunchalar mohiyatining yoritilishida aytilgan fikrlarni qayta takrorlamagan holda ularga nisbatan turlicha yondashilgan. Sinaluvchilar nutqida ifodalangan ta'riflar mazmundorligi maktabda ularning tabiatshunoslik faniga oid bilimlarni alohida qiziqish bilan o'zlashtirganliklarini ko'rsatadi. Shu jihatdan so'z o'yinlari bolalar tomonidan ona tilidagi nutqning o'zlashtirilish jarayoni bilan bog'liq sotsiopsixolingvistik xususiyatlarni aniqlash va ularning persektiv lug'atini faollashtirishdagi etakchi usullardan biri sanaladi. Chunki ontogenez jarayonida bola dastlab ona tiliga xos so'zlar va ularning semantikasiga nisbatan ob'ektiv munosabatda bo'ladi.

Psixolingvistikada bolaning nutq voqeligiga nisbatan yondashuvi ikki nuqtai nazardan farqlanadi. Bolaning pozitsiyasi nutq birligi bo'lgan so'zga nisbatan amaliy ko'rinishda bo'lsa, kommunikatsiya jarayonida leksik vositalar formal-funksional jihatdan turlicha ifodalanishiga qaramay, uning lisoniy ongida semantik taraqqiyot bilan bog'liq qonuniyatlar haqidagi tushuncha va tasavvurlar noaniqlik kasb etadi. Bolaning nutqqa nisbatan munosabati nazariy xususiyatga ega bo'lsa, u ona tilini predmetli dunyoni aks ettiruvchi voqelik sifatida talqin qiladi. Bunda bola tilning unsurlari, tuzilmalari va qonuniyatlarini muayyan darajada tushunishi mumkin. Tilning leksik-semantik sathiga doir qonuniyatlarni anglab etgan bola nutq birligidan erkin va ongli ravishda foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Polisemantik so'zlar o'rtasidagi ma'no munosabatini aniqlashga yo'naltirilgan ushbu o'yin jarayonida "bet" leksemasidan material sifatida foydalanildi.

Bu borada o'tkazilgan tajriba natijalariga ko'ra, polisemantik so'z sifatida qo'llaniladigan "bet" leksemasining ma'nolari sinaluvchilar tomonidan misollar

yordamida quyidagicha talqin qilingan: Sanjar Serkaboev tomonidan mazkur leksik birlikning ma'nolari shunday ifodalangan:

1. *Yuz: Odamning yuzi.*
2. *Varaq: Daftarning varag'i.*

Abdulloh Akbarov tomonidan qayd etilgan misollarda esa ushbu so'z quyidagi ma'nolarda ishlatilgan:

1. *Varaq: Men kitobning 128-betiga keldim.*
2. *Insonning yuzi: Odamlar insonning yuz ko'rinishiga qarab baho berishadi.*
3. *Tomon: Men ariqning narigi betiga sakrab o'tdim.*

Yuqoridagi misollar tahlili shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinf o'quvchisi ko'p ma'noli so'zlar haqida nazariy bilimga ega bo'lmaganligi uchun leksemaning faqat to'g'ri ma'nolariga e'tibor qaratgan.

Verbal muloqot va uning asosiy elementi bo'lgan so'zga nisbatan bola pozitsiyasining o'zgarishi bilan bog'liq psixolingvistik qonuniyatlarni tadqiq etish nutqiy faoliyatning rivojlanish bosqichida mantiqiy tafakkurning shakllanishi haqidagi umumiy tasavvurning kengayishiga xizmat qiladi. Mazkur qonuniyatlarni tadqiq etish bolalar tomonidan omonim so'zlar semantikasining talqin qilinishi bilan bog'liq muammolarning echimi uchun ham muhimdir. 11-12 yoshli bolalar o'rtasida "Topqirlar bellashuvi" o'yini asosida o'tkazilgan sinov natijalari yuqoridagi fikrni isbotlaydi¹. Tajribada Gurlan shahridagi 19,20-son umumiy o'rta ta'lim maktablarining yigirma nafar 6-sinf o'quvchisi ishtirok etdi. O'yin ishtirokchilariga ot va fe'l so'z turkumiga oid shakldosh leksemani topib, uning ma'nolarini misollar yordamida izohlash kerakligi e'lon qilindi. Sinov jarayoni yozma ravishda amalga oshirildi.

O'quvchilar tomonidan ularning perseptiv lug'atida mavjud bo'lgan omonim so'z ma'nolarining ifodalanishida quyidagi holatlar kuzatildi:

1. Tajriba ishtirokchilari tomonidan keltirilgan misollarning aksariyat qismida leksik omonimlarning asosiy ma'nolari o'z ifodasini topgan. Jumladan,

¹ Диссертациянинг 3.1. бўлимида таҳлил қилинган ўзбек тилига оид шаклдош сўзлар 2008 йил 21 майда ўтказилган тажриба натижаларига кўра қайд этилган.

Akmal Abdurahmonov nutqida “ot” so‘zining ma’nolari shunday izohlangan:

- a) *hayvon: men ot minishni yaxshi ko‘raman;*
- b) *odamga qo‘yiladigan ism: mening otim Abdulloh;*
- c) *so‘z turkumi: Ot – predmetni bildirib, kim? yoki nima? so‘rog‘iga javob bo‘ladigan so‘z;*
- d) *fe‘l .shakli: bolalar tosh otib, oynani sindirishdi;*
- e) *hasharot: oti yo‘q – chayon.*

2. O‘quvchilar tomonidan qayd etilgan ayrim dalillar ularning leksik omonimlar va muayyan yagona referent bilan bog‘langan tushunchani ifodalovchi so‘z shakllarini farqlay olmasligini ko‘rsatadi. Bu holat Zulfiya Mirayevaning javoblarida aniq ko‘zga tashlanadi:

- a) *kulmoq: Kulib yurish odamni yoshartiradi;*
- b) *kul (yongan o‘tinning kuli): Kul osmonda uchadi;*
- c) *kuldir: Xanda ustalari odamni kuldiradi:*
- d) *kuldirgich: Qizaloqning yuzida chiroyli kulgichi bor.*

3. Tajriba jarayonida to‘plangan bir qator misollarda omonim so‘zlar faqat bir ma’noda qo‘llangan. Bunga Surojiddin Shomurodovning javoblarini misol qilib keltirish mumkin:

- a) *mening juda ko‘p do‘stlarim bor;*
- b) *o‘rtog‘imda qiziqarli kitoblar bor;*
- c) *kutubxonamizda ertak kitoblar bor.*

Albatta, bolalar mazkur yosh davrida yuqoridagi kabi shakldosh leksemalarni turli muloqot vaziyatlarida har xil ma’noda qo‘llanishi haqida muayyan darajada bilim va malakaga ega bo‘lganliklari tufayli kommunikatsiya jarayonida ulardan to‘g‘ri foydalanishga harakat qiladilar. Leksik omonimlarning semantik xususiyatlarini misollar orqali talqin qilish jarayonidagi qiyinchiliklar esa nafaqat sinaluvchilar tomonidan o‘zlashtirilgan lisoniy bilimlar, balki ularda kommunikativ qobiliyatning rivojlanganlik darajasiga bog‘liq holda yuzaga kelgan.

Yuqoridagi kabi spetsifik xususiyatlar o‘quvchilar tomonidan xorijiy tillarning

o'zlashtirilishi bilan bog'liq muammolarni aniqlash borasida o'tkaziladigan leksik o'yin jarayonida ham ko'p kuzatiladi. Qiziqarli o'yinlar orqali so'z o'zlashtirilganida, bolaning xotirasida yangi leksik birliklar mustahkam saqlanib qoladi.

Demak, bolaning kattalar va tengdoshlari bilan munosabatida so'z o'yinlari muhim o'rin tutadi. Bola o'yinlari, ayniqsa, kichik yoshda o'ziga xos xususiyatga ega. Turli ijtimoiy rollarni bajarish bolalarda keng muloqotda bo'lishni taqozo etadi. Bu esa o'z navbatida bola so'z zaxirasining boyib borishi, unda lisoniy qobiliyat va nutqiy xulqning shakllanishi, qolaversa, muloqot ko'laminin g kengayishiga yordam beradi.

2.2. Maktabgacha yoshdagi bolalar lug'at zaxirasining takomillashuvida dialogik nutqning ahamiyati

Bola perseptiv lug'atining boyib borishida uning kattalar bilan muloqotga kirishish jarayonidagi savol-javoblari muhim ahamiyatga egadir. Savol-javob usuli asosida yuzaga keluvchi dialogik nutq bola ongida narsa-buyum hamda voqea-hodisalar haqidagi tushuncha va tasavvurlarning ortib borishiga sabab bo'ladi. Chunki nutqning ushbu turi bilish jarayonining yanada takomillashuviga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Dialogik nutqning bola lug'at zaxirasiga ta'siri nutqiy muloqotning rivojlanish bosqichida yaqqol aks etadi.

Maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyalanuvchilari nutqiga oid sotsiopsixolingvistik xususiyatlarni tadqiq etish asosida qayd etilgan ma'lumotlarga ko'ra, 4 yoshdan 6 yoshgacha bo'lgan bolalarning turli toifadagi suhbatdoshlar bilan dialoglari tematikasi 60 ga yaqin turli xil mavzularni qamrab oladi. Bu mavzularni ustuvorlik tamoyiliga ko'ra uch guruhga birlashtirish mumkin.

1. Bolalarning o'yin faoliyati, qiziqishlari va maktabgacha ta'lim muassasasida yuz beradigan voqealar bilan bog'liq mavzular.

2. Bolalarning tevarak-atrofdagi buyumlar olamini bilishga bo'lgan intilishlarini aks ettiruvchi mavzular.

3. Bolaning kishilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, atrofidagilar va o'zining shaxsiy hayotiga bo'lgan qiziqishlarini ifoda etuvchi mavzular.

Birinchi guruhga kiruvchi dialogik suhbatlar quyidagi tematik bloklarga ajratildi: o'yin va o'yinchoqlar (o'yinchoqlarni muhokama qilish); bolalarning qiziqish va intilishlari (tomosha qilingan kinofilm va multfilmlar, uy hayvonlarini muhokama qilish); maktabgacha ta'lim muassasasida sodir bo'ladigan voqealarni muhokama qilish.

Ikkinchi guruhga oid mavzularni to'rt tematik blokka tasniflash mumkin: jonli va jonsiz tabiatga qiziqish; ilmiy-texnikaviy kashfiyotlarga qiziqish; erning paydo bo'lishi, undagi hayot va fazoga qiziqish; tushunarli bo'lmagan so'zlarning ma'nolarini bilishga qiziqish.

Uchinchi guruhni shunday tematik bloklarga ajratish mumkin: oilaviy muloqot (sotib olingan narsalar va sovg'alar, oilaviy dam olish va bayramlarni muhokama qilish); o'zini anglash (o'zining qiziqishlari, orzulari, sirlari haqida so'zlashga harakat qilish, shuningdek, o'zi haqida nimanidir bilish); atrofdagi kishilar bilan o'zaro munosabat (qarindoshlari, do'stlari va tanishlari bilan); kattalarning shaxsiyatiga qiziqish.

Mazkur masala yuzasidan izlanish olib borgan bir qator sotsiologik va psixologik perseptiv lug'atni tashkil etuvchi so'zlar semantikasining kichik yoshdagi bolalar tomonidan idrok etilishida dialogik muloqotning naqadar muhim ahamiyatga ega ekanligini e'tirof etadilar. Tadqiqotchilar maktabgacha yoshdagi bolalar nutqining leksik-semantik xususiyatlarini namoyon etuvchi interaktiv dialoglarni quyidagi turlarga ajratish taklif qilinadi.

- a) "katta odam va bola" o'rtasidagi munosabatni aks ettiruvchi dialogik muloqot;
- b) "bola va bola" o'rtasidagi munosabatni ifodalovchi dialogik muloqot.

Interaktiv dialoglarni bu tarzda tasniflash nihoyatda dolzarb bo'lib, mazkur yondashuv maktabgacha yoshdagi bolalarning kommunikativ bilim darajasini aks

ettiradi. Ona tilini o'zlashtirish davrida savollar tajriba orttirish, dunyoqarashni kengaytirishning asosiy usuli, shuningdek, bolaning fikr, istak va intilishlarini ifodalash vositasiga aylanadi. Bu xususiyat maktabgacha yosh davridagi bolalarning spontan nutqida yaqqol namoyon bo'ladi. Jumladan, Sarvarbek Umarov (3 yoshu 5 oy) otasidan so'raydi:

– *Dada, man katta bo'ganimda dada bo'laman-a?*

– Ha!

– *O'shanda siz mani o'g'lim bo'lasmi?*

– Sen dada bo'lganingda men buva bo'laman.

Biz yuqoridagi singari kommunikativ vaziyatlarning yuzaga kelish sababini bola ruhiyatining rivojlanish bosqichlari bilan bog'liq holda izohlaymiz. Chunki mazkur yosh davridagi bolalarda mantiqiy fikrlash qobiliyati to'liq shakllanmagan bo'ladi. Aziza G'ulomova (4 yoshu 7 oy) bilan o'tkazilgan kasblar haqidagi suhbat jarayoni bunga yaqqol misol bo'la oladi:

– Kelajakda kim bo'lmoqchisan?

– *Prappesr.* Shu tufayli borliqdagi hodisalar ular tomonidan o'ziga xos soddalik bilan idrok etiladi.

– Professorlar qanday bo'ladi?

– *Doktor bo'ladi.*

– Ular nima ish qilishadi?

– *Dovoliydi odamlani, ukol qilishadi, kapelnitsa qilishadi.*

Shu vaziyatda Erkin Islomov (5 yoshu 11 oy) ham suhbatga qo'shilib, o'z fikrini bildirishga harakat qildi:

– *Professrla xo'jayin bo'ladi-g'u!*

Bu holatda suhbat ishtirokchilarining o'z fikrida qat'iy turib olganligi shundan dalolat beradiki, Kuzatuvlar mobaynida to'plangan yuqoridagi kabi bir qator misollar bola uchun ichki tuyg'ulari bilan o'rtoqlashish va fikrlash mahoratini namoyon etishda savol-javob usulining naqadar katta ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi.

Ma'lumki, maktabgacha yosh davrida bolaning asosiy faoliyati o'yin hisoblanadi. Shu sababli u muloqot jarayonidagi savol-javoblardan o'yin sifatida foydalanishi ham mumkin. Biz bolalar nutqiga xos bunday xususiyatlarni tadqiq etish maqsadida Malika Abduhalilova (4 yoshu 8 oy)ga quyidagi savol bilan murojaat qildik:

– Nima uchun bugun bog'chaga bormading?

– ***O'shanga. Siz o'qishga bordizmi?***

– Yo'q.

– ***Nimaga?***

– O'shanga.

Ushbu holat bola uchun qiziqarli bo'lib tuyulganligi bois, u kulib yubordi. Oradan olti kun o'tganidan so'ng Malika bilan yana suhbatlashdik. U muloqot jarayonida berilgan barcha savollarga ***o'shanga***, – deb javob berdi.

O'zbek bolalar nutqi ustida olib borilgan kuzatuv natijalariga tayanib shuni ham ta'kidlash joizki, ayrim hollarda "o'shanga" so'zi bolaning ruhiyatidagi salbiy o'zgarishlar yoki "nima uchun?" degan savolga aniq javob topa olmaganligi tufayli vaziyatdan chiqishni engillashtirish vositasi sifatida xizmat qiladi. Aslida bola javob berishning bu usulini kattalar nutqidan o'zlashtiradi.

Ba'zan bolada kattalar tomonidan berilgan savolga javob mavjud bo'lsa ham, fikrni ifodalash jarayoni murakkab kechadi. Bunday holat bola so'z zaxirasida u yoki bu tushunchaga mos leksik vositaning mavjud emasligi natijasida yuz beradi: Hojimurod Erkinov (1 yoshu 8 oy)ga muzlatkichni ko'rsatib, bu nima deb so'ralganida, u ***Muni*** (Munira) deb opasining ismini aytadi. Ko'rinadiki, bola bilan suhbat jarayonida beriladigan savollar uning yosh jihati, individual-psixologik xususiyatlari va ayni vaziyatdagi ruhiy holatini hisobga olgan holda tuzilishi zarur. Chunki bola maktabgacha yosh davrida signifikativ funksiyani bajaruvchi lug'aviy birliklarning ma'no qirralarini etarli darajada anglamaydi. Hojimurod Erkinov (3 yoshu 5 oy)ni onasi erkalab shunday deydi:

– Yomon shokoladsan-a!

– ***Yo'q, yaxshi shkalatman.***

Bu yosh davrida bola muayyan narsa-buyum nomini ifodalovchi leksemaning kattalar nutqida boshqa bir mavhum tushunchani ifodalash maqsadida ishlatilganligini ham to'liq idrok eta olmaydi. Kichik yoshdagi bolalarning situativ muloqotida bu tarzda yuzaga keluvchi nutqiy hodisalar ular lug'at zaxirasining perseptiv xususiyatiga bog'liq bo'ladi: Muniraxon Erkinova (2 yosh)ga "Inson!", – deb murojaat qilinganida, u ***Man insonmasman***, deb yig'lab yuborsa, Salohiddin Asqarov (3 yoshu 8 oy)ni buvisi "Dono bolam!" – deb maqtaganida, u: ***Yo', man Salohiddinman***, – deb javob beradi.

Amaliy izlanishlar davomida bola tomonidan bildirilgan fikrning mazmuni uning nutqida implitsit holatda aks etishi ham kuzatildi. Bunga Malika Abduhalilova (4 yoshu 9 oy) bilan bo'lgan quyidagi dialogik suhbatni misol qilib keltirish mumkin:

– Katta bo'lganingda kim bo'lmoqchisan?

– ***Qiz bo'laman.***

– Hozir o'g'il bolamisan?

– ***Boshim kal bo'g'aninda chiqonlarim ustimnan kulishadi-g'u!***

Bolaning nutqiy muloqotida kuzatilgan ushbu hodisani pragmatik aspektida tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Malikaning boshida sochi yo'q bo'lganligi uchun (sochi oldirilgan) o'rtoqlari uni "o'g'il bola" deb masxara qilishadi. Bu o'rinda bolaning ***qiz bo'laman*** tarzida bergan javobi orqali "katta bo'lsam, sochim o'sadi" degan mazmun anglashiladi. O'zbek bolalarning verbal muloqotida kuzatiladigan yuqoridagi singari nutqiy ifodalarni lingvistik pressuppozitsiya hodisasining muayyan turi sifatida e'tirof etish mumkin.

Mazkur holat bolalar tomonidan mavhum ma'no kasb eituvchi tushunchalarning darajasini aks ettirishga xizmat qiladigan son so'z turkumiga xos leksik birliklar semantikasining o'zlashtirilish jarayonida ham yuz beradi. Bu xususiyat asosan 4 yoshdan 6 yoshgacha bo'lgan bolalarning nutqiy muloqotida o'z ifodasini topadi. Hilolaxon Erkinova (5 yoshu 6 oy)ning nutqida shunday holat kuzatildi:

– ***Man olti yosh bo'sam, maytapka boroman.***

– Maktabda necha baho olasan?

– ***Besh, olti.***

– Olti baho bo‘lmasa-chi?

– ***yetti.***

Kattalar bilan suhbat jarayonida savol bola uchun o‘zi bilgan so‘zlarning leksik ma’nolariga aniqlik kiritish vositasi va yangi ma’nolarni kashf qilish usuli sifatida xizmat qiladi. Hojimurod Erkinov (4 yoshu 8 oy) opasiga savol beradi:

– ***Pashshaxona pashshalani uyimi?***

Bunday holatlarda kattalar uchun odatiy bo‘lib qolgan savol-javob jarayonida ishlatiladigan ayrim so‘zlar bolaning tafakkurida yangi ma’no kasb etib, ulardan javobni to‘g‘ri va aniq ifodalash ustida jiddiy o‘ylashni talab qiladi. Chunki bola bu davrda kattalarning nutqiy muloqotida qo‘llanadigan konnotativ semaga ega bo‘lgan lug‘aviy birliklarni nutqiy me‘yor sifatida qabul qilish salohiyatiga ega bo‘lmaydi. Bunga O‘zbekiston teleradiokanali orqali namoyish etilgan “Oqshom ertaklari” ko‘rsatuvi muallifining quyidagi fikriga Salohiddin Asqarov (4 yoshu 5 oy) tomonidan bildirilgan munosabat yaqqol misol bo‘la oladi:

– Aziz bolajonlar! Endi hammamiz birgalikda miriqib multfilm tomosha qilamiz.

– ***Miriqibmas, maza qilib diyish karak!***

Aksariyat hollarda bolalar nutqiga xos bu xususiyat badiiy asar matnidan foydalanish jarayonida ham namoyon bo‘ladi: Hilolaxon Erkinova (5 yoshu 7 oy) laylakqor haqidagi “Uyga kirdi tentak qor” misrasi bilan tugallanadigan qo‘shiqni yod olish jarayonida matndagi so‘nggi misrani qayta takrorlamasligini aytadi. Biz buning sababini aniqlash maqsadida bolani muloqotga jalb etdik:

– Nima uchun oxirgi misrani aytishni xohlamaysan?

– ***Qor tentak bo‘miydi-g‘u!“Tentak Melisio” diydi-g‘u!***

– “Tentak” deganda nimani tushunasan?

– ***Tentak – jinni degani.***

Bu holatda bolaning tasavvurida “Esmeralda” teleseriali qahramonlari nutqi bilan bog‘liq assotsiatsiya paydo bo‘lgan. Bolalar nutqida so‘zning ma’nosini

to'liq tushunmagan holda qo'llash natijasida yuzaga keluvchi yuqoridagi kabi leksik muammolar ko'p kuzatiladi. Chunki bola kattalar uchun mo'ljallangan teleserial qahramonlarining nutqini eshitish orqali lisoniy axloq me'yorlariga muvofiq kelmaydigan mavhum leksemalarni xotirada saqlab qoladi va kommunikatsiya jarayonida ulardan foydalanadi.

Bundan anglashiladiki, maktabgacha yoshdagi boladan mavhum ma'nodagi lug'aviy birliklarning izohi so'ralganida, u berilgan savolga asosan sezgilar yordamida idrok etilgan tushunchalarga tayangan holda javob qaytarishga harakat qiladi.

Aksariyat hollarda bola kattalar nutqida keng ma'noda qo'llanadigan so'zlarni tor doirada tushunadi va ularning ma'nolarini o'z tushunchalari doirasida talqin qiladi. Salohiddin Asqarov (4 yoshu 2 oy) ukasidan iltimos qiladi:

- *O'yinchoqlani sindirmasdan o'ynagin!*
- *Sindirsam nima bo'ladi?*
- *Yomon bo'ladi, chotoq bo'ladi.*

Bolalar tomonidan kattalar nutqining tushunilish darajasini belgilovchi asosiy omillardan biri ularning yosh xususiyatidir. Aka-uka Sardor (7 yosh) va Sanjar (4 yoshu 9 oy) Serkaboevlarning yuz tuzilishi hamda xarakter-xususiyatlarini o'zaro qiyoslagan holda, ularga quyidagicha savol berildi:

– Sardor! Nima uchun Sanjar senga o'xshamaydi? Sardor savolga javob bera olmay, o'ylanib qoldi.

- Sanjar! Sen nega Sardorga o'xshamaysan?
- *Man kichkinaman.*

Demak, bunda bola o'zi uchun mavhum bo'lgan holatga oydinlik kiritish maqsadida bir hodisaning mohiyatini tushunishda uni boshqa hodisa bilan bog'lab tasavvur qilgan holda fikr yuritmoqchi bo'lgan. Maktabgacha yoshdagi bolalarga xos bunday intellektual qiziqish ularda tafakkur va nutqning jadal rivojlanishiga yordam beradi. Shu jihatdan savollar bilan bog'liq faoliyat bola uchun zarur va majburiy jarayon bo'lib, u go'dakning ruhiy holati va uning muvaffaqiyatli til taraqqiyoti ko'rsatkichidir.

III BOB. O‘QUVCHILARNING KOMMUNIKATIV FAOLIYATI

3.1. O‘quvchilar kommunikativ faoliyatida mavhum leksemalarning ifodalanishi

O‘quvchilar kommunikativ faoliyatida mavhum leksemalarning ifodalanishi bilan bog‘liq masalalarni o‘rganish hozirgi zamon kommunikativ tilshunosligining dolzarb muammolaridan biridir. Kommunikativ faoliyat u yoki bu lingvomadaniyat, jamoa, bir tilda so‘zlashuvchi guruh yoki alohida individ nutqiga xos muloqot jarayonida amal qilinayotgan qoidalar va an‘analarning yig‘indisi hisoblanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kommunikativ faoliyatini o‘rganish dialogik muloqot modelini qurish va bolalar nutqiga oid kommunikativ faoliyat metodikasini bayon qilishda katta ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, ishlab chiqilgan modellar asosida o‘quvchilarning kommunikativ faoliyatini tizimli ravishda bayon etish imkonini beradi. Mazkur tushunchani talqin qilish natijasida bola kommunikativ ongi rivojlanishining yosh xususiyati bilan bog‘liq dinamikasi aniqlanadi.

Demak, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kommunikativ ongini tadqiq etishda, eng avvalo, alohida olingan konseptlar mazmunini aniqlash zarur. Chunki ular muloqotga kirishuvchi shaxs nutqining leksik-semantik xususiyatlarini yoritishga asos bo‘ladi.

Kommunikativ faoliyatning rivojlanish bosqichida savol-javob usuli, eng avvalo, bola so‘z zahirasi bilan yangi lug‘aviy birliklar bilan boyib borishini ta‘minlashga xizmat qiladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kommunikativ faoliyatida yaqqol ko‘zga tashlanadigan leksik-semantik xususiyatlardan biri shuki, ularning nutqida 14 yoshdan 16 yoshgacha bo‘lgan yuqori sinf o‘quvchilari tomonidan standart til me‘yorlarini buzib, so‘zni ko‘chma ma‘noda qo‘llagan holda narsa va hodisalarni aks ettirish uchun kundalik hayotda ishlatiladigan sotsiolekt elementlari ko‘p uchraydi. Bolalar nutqida ifodalangan *uxlatmoq* (o‘g‘rilamoq, aldamoq, buzmoq), *o‘ramoq* (boshini aylantirmoq), *kuchayib qolgan* (o‘zini boshqalarga nisbatan

yuqori darajada his etgan holda maqtanadigan, yangi, yuqori sifatli, qimmatbaho narsa-buyum, daraja, unvon yoki lavozimga ega bo'lgan), *surayyo!* (qoch, ket!), *yoqibdi!* (yoqmay qolsin!), *parot bo'lmoq* (uyalmoq), *parot qilmoq* (uyaltirmoq), *duxii etmoq* (jur'at qilmoq), *vip* (bemalol, tekin) kabi so'zlar shular jumlasidandir. O'quvchilar muloqotida kuzatiladigan bunday lug'aviy vositalarning ba'zilarini o'zbek bolalar nutqiga xos disfemizm (kishilarni o'z nomi bilan atamay, haqoratlash va kamsitish maqsadida tabiatdagi salbiy xarakterda deb bilingan jonivor yoki narsa nomi bilan atash)¹ sifatida talqin qilish maqsadga muvofiqdir. Bunga *tom* yoki *tomi ketgan* (miyasi ishlaymaydigan), *harip* (uquvsiz, farosatsiz) singari nutqiy birliklarni misol qilib keltirish mumkin. Biroq boshlang'ich sinf o'quvchilari mazkur so'zlarning ma'nolarini yuqori sinf o'quvchilariga nisbatan tor doirada tushunadilar. Ayniqsa, bu holat o'zbek tili lug'at tarkibiga kirmaydigan, ammo xorijiy tillardan o'zlashib, o'smirlarning so'zlashuv nutqida keng qo'llanadigan leksik birliklar semantikasining 6 yoshdan 11 yoshgacha bo'lgan bolalar tomonidan talqin qilinish jarayonida aniq ko'zga tashlanadi. Masalan, o'zbek millatiga mansub boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqida faol qo'llanadigan ingliz tiliga oid *es* so'zi xursandlik kayfiyatini ifodalaydi. Ingliz tilini bilmaydigan kichik yoshdagi bolalardan ushbu leksemaning qanday kommunikativ vaziyatlarda ishlatilishi haqida so'ralganida, ular so'zning ma'nosini aniq tushuntirib bera olmaydilar.

Ko'p hollarda boshlang'ich sinf o'quvchilari ham kundalik muloqot jarayonida o'smirlar singari geminatsiya hodisasi asosida yuzaga kelgan *jovvop* (fikrni qat'iy ishonch bilan aytmoq), *karrillama!* (ko'p maqtanib gapirma!), *xappa* (yaroqsiz holatga kelgan), "quyonning rasmini chizmoq" tarzida ifodalanuvchi iboraga muqobil bo'lgan *quyyon* (qochib ketmoq), *dodda* (zo'r) kabi so'zlardan keng foydalanadilar. Mazkur leksik birliklar yuqori sinf o'quvchilari tomonidan so'zning ma'nosi yoki fikrning mazmunini kuchaytirish maqsadida fonetik o'zgarishga uchragan holda talaffuz qilinadi. Biroq boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun tovush o'zgarishining so'z ma'nosiga ta'siri ahamiyatsiz bo'lib, ularning

¹ Қаранг: Миртожиев М.М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. - Тошкент: Университет, 2004. - Б. 160.

nutqida bunday leksik vositalar asosan yosh jihatdan kattaroq bolalarga taqlid qilish maqsadida ishlatiladi.

Tadqiqotlarda bolaning fikrlash xususiyati uning yosh va taraqqiyot darajasini hisobga olgan holda to'rt bosqichga ajratiladi:

1. 1-3 yoshli bola senso-motor xarakterda fikrlaydi.
2. 4-7 yoshdagi bola operativ ko'rgazmali xarakterda fikrlaydi.
3. 8-11 yoshdagi bola aniq operatsiyalarni bajarishga moyil bo'lib, konkret fikrlaydi.
4. 12-16 yoshli bola abstrakt xarakterdagi formal hukmlar chiqarishga moyil bo'lib, o'z farazlarini bayon qilishga intiladi¹.

Yuqori sinf o'quvchilarining lisoniy ongida mavjud leksema ma'nolarini tadqiq etish bugungi kunda bolalar tafakkur tarziga xos o'zgarishlar ta'sirida ular nutqining intensiv ravishda rivojlanib borayotganligini aniqlashga imkon beradi. Chunki o'smirlar nutqiy faoliyatida o'zbek tilining izohli lug'atida qayd etilmagan ko'plab yangi ma'nolar ham o'z aksini topadi. O'smirlar nutqiga xos bu xususiyat o'n ikki nafar o'quvchi o'rtasida o'tkazilgan sinov jarayonida yaqqol namoyon bo'ldi. Tajribada Gurlan shahridagi 20,31,43-son umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-9-sinf o'quvchilari ishtirok etdi. Unda so'zni izohlash usulidan foydalanildi. Mavhum leksemalarning ma'nolarini og'zaki nutq orqali adabiy til me'yorlariga muvofiq holda ifodalashga yo'naltirilgan ushbu sinov jarayonida sakkiz nafar o'quvchi faollik ko'rsatdi. Jumladan, Muniraxon Erkinova (14 yosh) tomonidan *tush* so'zining ma'nosi *uyqudagi kino* tarzida izohlandi. Biz mazkur nutqiy ifodani tahlil qilishda *tush* tushunchasiga berilgan ta'rifning bola tafakkuri bilan bog'liq qanday psixik jarayonlar ta'sirida yuzaga kelganligini aniqlash uchun undan so'zning ma'nosini misollar orqali tushuntirishini so'radik. Bola bilan suhbat jarayonida aniqlanishicha, u yuqoridagi tushunchani ta'riflashda tushdagi voqelik kinodagi kabi har doim ham haqiqatga to'g'ri kelavermasligiga asoslangan. Bu holat, bir tomondan, maktab o'quvchisida lisoniy qobiliyatning

¹ Юлдашева Д. Бола нутқида зоонимларнинг этнопсихолінгвістик хусусиятлари // Халқ таълими. - Тошкент, 2004. - № 5. - Б. 73.

shakllanish dinamikasini ifodalasa, ikkinchi tomondan, o'zbek tili leksik-semantik tizimining jadal rivojlanib borayotganligidan dalolat beradi.

O'zbek bolalarning persektiv lug'atiga oid mavhum leksemalarni talqin qilishda ham masalaga shu nuqtayi nazardan yondashish maqsadga muvofiqdir. Chunki tajriba davomida to'plangan bir qator dalillar bu xususda ilgari surilgan nazariyani amaliyot orqali isbotlashga asos bo'ladi:

1. Tizimli ma'nolar. Bunday leksemalarning ma'nolari o'zbek tilining izohli lug'atida o'z ifodasini topgan¹. Bunga bolalar nutqida ifodalangan quyidagi mavhum leksemalar va ularning ma'nolarini misol qilib ko'rsatish mumkin: Nodiraxon Sultonova (15 yosh) *armon* leksemasining ma'nosini *erisha olmaydigan, amalga oshmaydigan orzu* tarzida talqin qiladi. Abdubosit Abdurahmonov (12 yosh) esa *baxt* so'zini *o'z maqsadiga erishish* deb tushuntiradi.

2. Tizimsiz ma'nolar. Bunday mavhum so'zlarning ma'nolari lug'atlarda qayd etilmagan. Bunga Munisa Sultonova (13 yosh) tomonidan ifodalangan quyidagi so'z va uning ma'nosi misol bo'la oladi: *do'stlik –ikki yoki undan ortiq insonning bir-biriga bo'lgan ishonchi*. Mansur Toyirov (14 yosh) esa *sadoqat* tushunchasini *insonlar o'rtasidagi ishonch, o'zaro hurmat* tarzida izohlaydi.

Tajriba natijalariga ko'ra, 11-12 yoshli bolalarning lisoniy ongida mavhum so'zlarga xos bir qator tizimli ma'nolar mavjud emasligi anglashildi: Madina Abdurahmonova (11 yosh) nutqida *xayol* leksemasining ma'nosi *orzu va rejalar poydevori*, Anvar Ergashev (12 yosh) nutqida *vaqt* so'zining ma'nosi *quvib ham, to'xtatib ham bo'lmaydigan harakat* tarzida aks etadi. Bu xususiyat, ayniqsa, yuqori sinf o'quvchilarining tengdoshlari bilan muloqotga kirishish jarayonida ko'p kuzatiladi. Chunki mazkur yoshdagi bolalar uchun so'zning bir qator ma'no qirralari katta ahamiyatga ega bo'lmaydi. Bunga mavhum leksemaga xos bo'lgan ba'zi ma'nolarning til tizimida dolzarb emasligi ham katta ta'sir etadi.

Mavhum leksemalarda aks etgan ayrim ma'nolarning o'quvchilar lisoniy ongida mavjud bo'lmasligi quyidagi omillarga bog'liq: sinaluvchilarda hayotiy

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш жилдли. - Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006-2008. - 592 б.

tarjibaning yetarli emasligi tufayli ular o'ziga tanish bo'lgan polisemantik so'zning ba'zi ma'nolarini bilmasligi mumkin. Bu xususiyat bola lisoniy malakasining shakllanganlik darajasi bilan ham bevosita bog'liq. Bundan tashqari, tajriba o'tkazilayotgan vaqtda mavhum leksema tarkibidagi u yoki bu ma'no bolaning ongida aks etmasligi mumkin.

Bola tomonidan mavhum tushunchalarning ifodalanishida uning yosh jihati bilan birga, gender (jins) xususiyati ham muhim rol o'ynaydi: o'g'il bolalarning nutqida *mardlik, obro', omad, tinchlik, do'stlik, adolat* singari mavhum leksemalar aks etgan bo'lib, ularning aksariyat qismi yigitlarga xos tuyg'ular va fazilatlarni ifodalaydi. Biroq og'zaki savol-javob jarayonida ayrim o'g'il bolalar yuqoridagi leksik birliklarga izoh berishda qiyinchiliklarga duch kelishdi: Surojiddin Shomurodov (11 yosh) "tinchlik" so'zining ma'nosini tushuntirishda quyidagi vaziyatni yuzaga keltirdi: *tinchlik – osoyishtalik*. Bunda bola leksemaning qanday ma'no kasb etishini tushunsa ham, nutq orqali ifodalay olmaganligi tufayli savolga javob berish maqsadida unga sinonim bo'lgan so'zdan foydalanishga harakat qilgan.

Albatta, u yoki bu so'zni inson qalbiga yetkazish boladan chuqur bilim va katta mahorat talab etadi. Tajribada ishtirok etgan ba'zi o'g'il bolalarda lisoniy bilim va mahoratning talab darajasida emasligi ularning qiz bolalarga nisbatan badiiy asarlarni kam o'qiganliklarini ko'rsatdi.

Qiz bolalar tomonidan *quvonch, qayg'u, ko'ngil, tilak, muhabbat, samimiyat* singari ko'plab emotsional-ekspressiv bo'yoqqa ega bo'lgan dalillarning ma'no qirralari to'g'ri yoritib berilgan: Munira Abdurahmonova (14 yosh) nutqida *muhabbat* so'zining ma'nosi *sevgi, yaxshi ko'rmoq* tarzida ifodalanadi. *mehr* leksemasi Irodaxon Erkinova tomonidan shunday ta'riflangan: *birovning ko'nglini topib, uni qo'llab-quvvatlash, yordam berish*.

Bolaning yoshi ulg'aygan sari uning perseptiv lug'atida polisemantik so'zlarga xos ma'no turlarining dolzarblik darajasi va ahamiyati o'zgarib boradi. O'quvchilar tomonidan yangi ma'nolarning o'zlashtirilishi yoki kashf qilinishi natijasida ularning lug'at zaxirasini tashkil etuvchi so'zlar nafaqat sifat jihatdan,

balki miqdor jihatdan ham ortib boradi. Ontolingvistikada o'quvchilar nutqida uchraydigan mavhum leksemalar semantikasining spetsifik xususiyatlarini tadqiq etish orqali bolaning lisoniy ongi tuzilmasida aktiv va inaktiv zonalar, ya'ni faol va nofaol darajalar mavjudligi aniqlangan. Leksik birliklarning maksimal kommunikativ-relevant ma'nolari aktiv zonani hosil qiladi. Kommunikativ jihatdan relevant bo'lmagan ma'nolar esa inaktiv zonani tashkil etadi.

Til tashuvchisi muloqot jarayonida leksik birliklardan faol lug'atda mavjud bo'lgan boshqa so'zlar bilan muayyan munosabatlar tizimiga ega bo'lgan holatdagina foydalanishi mumkin. So'zning yangi va ko'chma ma'nosini o'zlashtirish natijasida yangi aloqalar paydo bo'lib, eskilari yo'qoladi. Shunga ko'ra, ontogenez jarayonida bunday aloqalar so'zning o'zlashuvi bilan bog'liq holda shakllanadi. Bir lug'aviy birlikning semantik tuzilishi uning ichki (ma'nolararo) va tashqi (so'zlararo) mazmuniy munosabatlari tildan foydalanuvchilar uchun leksemani o'zlashtirishning turli bosqichlarida o'xshashlik kasb etmaydi.

Umuman olganda, perseptiv lug'atning shakllanishi, so'z boyligining kengayishi va yangi leksik birliklarni o'zlashtirish insonning butun hayoti mobaynida davom etadi. Biroq kichik yoshdagi bolalar va o'smirlar tomonidan mavhum so'zlar semantikasining qabul qilinishida keskin tafovutlar kuzatiladi. Bolalar va o'smirlar nutqiga xos semantik munosabatlar kognitiv taraqqiyot natijalari, ya'ni ularning ruhiyatida kuzatiladigan aqliy va hissiy bilish jarayonidagi yutuqlarga bog'liq bo'ladi.

Demak, idrok etish faoliyati yuqori darajada rivojlangan bolalar aqliy faoliyati nisbatan sust bolalarga qaraganda nutqni tez tushunadilar va muloqot vaziyatida so'zlarni semantik jihatdan bog'lay oladilar. Chunki ular atrof-muhitdagi o'zlari uchun qiziqarli bo'lgan nutq voqeligiga nisbatan semantik munosabatda bo'ladilar. Tengqur bolalar perseptiv lug'atida bunday tafovutlarning yuzaga kelishi ularning ba'zilarida uchraydigan aqliy cheklovlar (fikrlash doirasining torligi) bilan bog'liq bo'ladi. Bu esa o'z navbatida bolalarning kognitiv faoliyatini aks ettiradi.

Bola atrof-muhit haqidagi bilimlarni o'zida aks ettiruvchi leksik birliklarning ma'nolarini tasavvur, tafakkur, xotira, xayol kabi psixik jarayonlar orqali idrok etish qobiliyatiga egadir. Bolalardagi intellekt nafaqat ularning jismonan rivojlanishi, balki nutqining shakllanishi bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi va takomillashadi.

1. Bola ijtimoiy hayot hodisalarini kuzatar ekan, voqelikni ifodalash uchun yangi so'z va iboralarni o'zlashtirish asosida uning perseptiv lug'ati boyib boradi. Bola perseptiv lug'atining ifodasi intellektual-psixologik o'yinlar hamda savol-javob usulidan foydalanish jarayonida o'z aksini topadi.

2. Bola perseptiv lug'atining rivojlanishida ijtimoiy munosabatlarni shakllantirishga xizmat qiluvchi dialogik nutq verbal muloqot shakli sifatida namoyon bo'ladi. Dialogik nutq situativ muloqot usuli hisoblanib, bunda bolalar bir-birlarini o'yinga jalb qilish orqali o'zaro lisoniy aloqa o'rnatadilar.

3. Kichik yoshdagi bolalar va o'smirlar kommunikativ faoliyatida mavhum leksemalarning ifodalanish jarayonida yuzaga keluvchi psixolingvistik muammolarni tadqiq qilish orqali ular nutqida aks etgan semalarning o'ziga xos shakli sifatida quyidagi ma'nolarni alohida ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiqdir:

- a) davr o'tishi mobaynida yo'qolib borayotgan ma'nolarning mavjudligi;
- b) yosh bilan bog'liq semantik komponentlarning mavjudligi;
- v) so'zning semantik strukturasi ma'nolar va alohida komponentlarning turlicha ma'no kasb etishi;
- g) tildagi mavhum so'zlarning semantik jihatdan nozik farqlarga ega bo'lishi va alohida olingan komponentlar ma'nosining o'zgarishi.

4. Yuqori sinf o'quvchilarining nutqida ifodalanuvchi leksema ma'nolarini psixolingvistik nuqtayi nazardan tadqiq etish bolalar tafakkur tarziga xos o'zgarishlar ta'sirida ular nutqining intensiv ravishda rivojlanib borayotganligini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. O'smirlar muloqotida o'zbek tilining izohli lug'atida mavjud bo'lmagan ko'plab yangi ma'nolar ham o'z aksini topadi.

3.2 O'quvchilarning so'z boyligining oshishi uchun ta'sir qiluvchi dars ishlanmalar

4-SINF ONA TILI

Ot- so'z turkumi

Dars maqsadi:	
Ta'limiy maqsad:	<ul style="list-style-type: none"> ➤ O'quvchilarga ona tili fanidagi ot so'z turkumi haqida ma'lumot berish ➤ Voqelikni tushunish va tushuntira olish(FK1) ➤ uning qanday so'roqlarga javob bo'lishi ➤ qaysi so'zlar ot ekanligini aniqlashni o'rgatish ➤ Shaxs nomi,shaxs oti,narsa oti qanday yozilishini o'rgatish
Tarbiyaviy maqsad:	<ul style="list-style-type: none"> ➤ Kamunikativ kompetensiya(TK1) ➤ O'z fikrini aniq va tushunarli bayon qila olish ➤ Do'stlik,hamkorlik sifatlarini shakllantirish ➤ O'quvchilarni insonni go'zal qiladigan kamtarlik, tartiblilik, shirinso'zlik, aqllilik fazilatlarini ruhida tarbiyalash. ➤ Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi (Tk4) ➤ Tarixga hurmat,bobolar merosini qadrlashni o'rganish.
Rivojlantiruvchi maqsad:	<ul style="list-style-type: none"> ➤ Axborot bilan ishlash kompetensiyasi (TK2) ➤ Berilgan topshiriqlarni mustaqil yecha olish ➤ O'z-o'zini rivojlanira olish kompetensiyasi(TK3) ➤ Jismoniy,ma'naviy,tarbiyaviy va intellektual kamolotga erishishga intilishning dastlabki bosqichlari

O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi



	Dars bosqichlari:	Bajariladigan ish mazmuni:	Ajratilgan vaqt
1	Tashkiliy qism	Salomlashish, davomat aniqlash, sinfni darsga tayyorlash	3 daqiqa
2	Uy ishini tekshirish O'tilgan mavzuni mustahkamlash	Takrorlash, mustahkamlash yangi mavzu bilan bog'lash	8 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	Yangi mavzuni tushuntirish	14 daqiqa
4	Darsni mustahkamlash	Yangi mavzuni mustahkamlash	15 daqiqa
5	O'quvchilar bilimini baholash. Uyga vazifa	O'quvchilar baholanadi va uyga vazifa beriladi	5 daqiqa

I. Tashkiliy qism.

O‘quvchilarga darsning maqsadini tushuntirish.

O‘quvchilarni guruhlarga ajratish.

Guruhlar amal qilishi kerak bo‘lgan

“**Oltin qoida**”larni eslatish:

- ✓ *Faol bo‘lish.*
- ✓ *Intizomli bo‘lish.*
- ✓ *Fikrni to‘la bayon qilish.*
- ✓ *O‘zgalar fikrini tinglash.*
- ✓ *Yangiliklar sari intilish.*
- ✓ *Vaqtdan unumli foydalanish.*
- ✓ *“O‘ng qo‘l” qoidasi.*




Uy ishini tekshirish:


147- mashq .”Gulxan” jurnalidan kichik qiziqarli matn topib ko‘chiring,otlar fe‘llar,sifatlarni topib tagiga chizing.O‘quvchilarning daftarlari tekshiriladi.

❖ O‘quvchilarga 5 savoldan iborat “Suratlar tilga kirganda” usuli yoradamida o‘quvchilarning ot,sifat,fe‘llarni qay darajada ajrata olishi aniqlanadi.Test uchun uch daqiqa vaqt beriladi. Bu shartda o‘quvchilarning bilimi bilan birga kuzatuvchanlik,tezkorlik,mantiqiy fikrlash qobiliyati shakllanadi.

❖ Har bir o‘quvchiga beriladi.Ular javoblarni tez va aniq belgilashlari kerak.Ikki marta belgilangan javob xato deb qabul qilinadi

Bu suratlardagi rasmlar qaysi so‘z turkumiga mansub?





Yangi mavzu bayoni

Ot soʻz turkumi

Shaxs va narsaning nomini bildirib, kim? yoki nima? soʻrogʻiga javob boʻluvchi soʻzlar ot deyiladi. Insonlarga atab qoʻyilgan nomlar **shaxs nomlari** deyiladi. Masalan: Salima, Dilshod, Ulugʻbek, Bobur va boshqalar.


Shahar, viloyat, tuman, qishloqlarga, mahalla, koʻcha, maktab, bogʻcha, doʻkon kabi oʻrin-joylarga atab qoʻyilgan nomlar **oʻrin –joy nomi** deyiladi. Masalan; Oʻzbekiston Respublikasi, Xorazm viloyati, Urganch shahri, Xiva shahri, Gurlan tumani, Vazir qishlogʻi, Dehqon mahalla, Mirzo Ulugʻbek koʻchasi, Sevinch boʻgʻchasi, Kitoblar olami nomli doʻkon kabilar oʻrin-joy nomi hisoblanadi. Shaxs va oʻrin-joy nomlari bosh harf bilan yoziladi. Aziz oʻquvchilar sizlarga savol:

- Nima uchun shunday nomlar qoʻyiladi?
- Siz oʻzingizni viloyat, tuman, shahrinigiz va yoki qishlogʻingizning nomi tarixini bilasizmi?

Yangi mavzuni mustahkamlash



O'quvchilarga shu suratchalardan birini tanlashlari kerakligi aytiladi. Ular tanlagach, suratlar ortidagi raqamlarga qarashlari aytiladi va ularga proektor yoki doskaga shaharlar surati va nomi yozilgan plakatlar ko'rsatiladi va ilib qo'yiladi. Har bir o'quvchi to'rt daqiqa davomida shu shahar haqida kichik matn tuzishi kerak bo'ladi. Keyin raqamlar ketma-ketligi bo'yicha o'quvchilar doska oldiga chiqishadi va o'z matnlarini o'qib berishadi. Guruh bilan biralikda bularning matnlari baholanadi. Yaxshi tuzilgan matn uchun yulduzcha shaklidagi rag'bat beriladi.



O'quvchilarni baholash;

O'quvchilarga dars davomida berilgan yulduzchalar sanalib, uchta yulduzcha yig'gan o'quvchilarga a'lo baho, ikkita yulduzcha yig'gan o'quvchilarga yaxshi baho va bitta yulduzcha yig'gan bo'lsa qoniqarli baho qo'yiladi. Agar o'quvchi yaxshi yoki a'lo baho olmoqchi bo'lsa qo'shimcha savollar beriladi va javob berishiga qarab yaxshi yoki a'lo baho qo'yiladi.

Uyga vazifa

150-mashq. Matnni o'qing, bosh harf bilan yozilgan otlarni bir ustunga kichik harf bilan yozilgan otlarni ikkinchi ustunga yozing.

- Qo'shimcha topshiriq o'zingiz biladigan baliq turlarining nomlarini yozib keling.

DARS ISHLANMA

- ❖ Sinf: 5
- ❖ Fan: Ona tili
- ❖ Mavzu: Lug'at va Lug'atshunoslik
- ❖ Vaqt: 45 daqiqa

Dars maqsadi:	
Ta'limiy maqsad:	<ul style="list-style-type: none"> ➤ O'quvchilarga ona tili fanidagi lug'at va lug'atshunoslik haqida ma'lumot berish ➤ Voqelikni tushunish va tushuntira olish(FK1) ➤ Lug'at nima ekanligi,qanday tartibda tuzulishi haqida ma'lumot berish ➤ Lug'atshunoslik haqida o'quvchilarga o'rgatish
Tarbiyaviy maqsad:	<ul style="list-style-type: none"> ➤ Kamunikativ kompetensiya (TK1) ➤ O'z fikrini aniq va tushunarli bayon qila olish ➤ Do'stlik, hamkorlik sifatlarini shakllantirish ➤ O'quvchilarni insonni go'zal qiladigan kamtarlik, tartiblilik, shirinso'zlik, aqllilik fazilatlarini ruhida tarbiyalash. ➤ Ijtimoiy faol fuqorolik kompetensiyasi (Tk4) ➤ O'z ona tiliga hurmat va qadrlash hisini tarbiyalash.
Rivojlantiruvchi maqsad:	<ul style="list-style-type: none"> ➤ Axborot bilan ishlash kopeteniya (TK2) ➤ Berilgan topshiriqlarni mustaqil yecha olish ➤ O'z-o'zini rivojlanira olish kompetensiyasi (TK3) ➤ Jismoniy,ma'naviy,tarbiyaviy va intellektual kamolatga erishishga intilish



Dars bosqichlari:	Bajariladigan ish mazmuni:	Ajratilgan
--------------------------	-----------------------------------	-------------------

		vaqt
Tashkiliy qism	Salomlashish, davomat aniqlash, sinfni darsga tayyorlash	3 daqiqa
Uy ishini tekshirish	Takrorlash,mustahkamlash	4 daqiqa
O‘tilgan mavzuni mustahkamlash	yangi mavzu bilan bog‘lash	8 daqiqa
Yangi mavzu bayoni	Yangi mavzuni tushuntirish	10daqiqa
Darsni mustahkamlash	Yangi mavzuni mustahkamlash	15 daqiqa
O‘quvchilar bilimni baholash.	O‘quvchilar baholanadi va uyga vazifa beriladi	3 daqiqa
Uyga vazifa		2 daqiqa

Tashkiliy qism

- O‘quvchilar bilan salomlashish
- Davomat aniqlash
- Sinfni darsga tayyorlash bilan shug‘ullanildi.

Uyga vazifani tekshirish

563-mashq. *Uyga topshiriq.* Gazetadan istalgan bir maqolani oling. Undagi olinma so‘zlarni aniqlashga harakat qiling. Bu so‘zlarni qaysi tildan olinganini ko‘rsatib, daftaringizga ko‘chiring.

O‘quvchilarning uyga vazifani qay darajada bajarganliklari aniqlanib, birgalikda tushunarsiz joylarini birgalikda bartaraf qilinadi.

O‘tilgan mavzuni mustahkamlash

O‘quvchilarga adabiyot darsligidan olingan kichik matnlar beriladi.O‘quvchilar so‘zlarni qaysi tildan olingani, to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri yozilganligini aniqlashlari kerak bo‘ladi.O‘quvchilar guruhlarda masalani yechishlari kerak bo‘ladi. Namuna:

O‘g‘illarim, men boy emasman,mendan qolgan davlat sizning mayishatingiz uchun kifoya qilmaydi,mendan ortiq narsa umit qilib o‘tirmanglar,o‘zimdan keyin baxtsiz bo‘lib qolmanglar deb,sizlarni o‘qitdim.yaxshi ot qo‘ydim.To‘y qildim,voyaga yetkazdim. Buning ustida sizlarni yana uch narsa bilan tarbiya qildim.Sog‘lom vujutli qilib o‘stirdim – quvvatli bo‘ldingiz.Ikkinchidan,yoriq bilan tanishtirdim,yarog‘ ishlatishga usta bo‘ldingiz.Uchinchidan,qo‘rqitmay o‘stirdim-

✚ Yangi mavzu bayoni

Tilimizda shunday soʻzlar borki baʼzilarini biz azal-azaldan qoʻllab kelamiz baʼzilari esa tilimizga boshqa tillardan kirib keladi. Bunay soʻzlar bizning tilimizda baʼzilari koʻp yillardan beri ishlatilib keyotgan boʻlsa baʼzilari yaqin davrlarda istemolga kirib kelgan soʻzlardir. Bunday soʻzlarni baʼzan tushunishga qiynalamiz, shunda bizga yordamga “Izohli lugʻat” keladi. Bunday soʻzlarning maʼnolari, uning aniq izohlari beriladi. Biz boshqa tildagi soʻzlarni oʻz tilimizga tarjima qilmoqchi boʻlsak, tarjima lugʻatiga murojaat qilamiz, agar biz biror soʻzning qanday yozilishini esdan chiqarib qoʻysak, ”Imlo lugʻat” dan yordam olamiz. Lugʻatlarda soʻzlar alifbo tartibida joylashiriladi. Lugʻat tuzish bilan shugʻullanuvchi soha “lugʻatshunoslik” deb ataladi. Oʻquvchilar sizlarga savol: Ensiklopediya ham lugʻat tartibida yoziladi u ham lugʻatmi?

✚ Darsni mustahkamlash

No	Berilgan savollarni diqqat bilan oʻqib javobni belgilang (+)	Izohli lugʻat	Imlo lugʻati	Tarjima lugʻat
1	Berilgan soʻzlar bu lugʻatda izohlanadi			
2	Qaysi lugʻatda soʻzlarni bir tildagisi bilan ikkinchi tildagisini aniqlash mumkun			
3	Bu yerda soʻzlarning qay tartibda yozilishini aniq bilish mumkun			
4	Baqlajon			
5	Книга-book-kitob			
6	Sanʼat-sanat qaysi biri ijod uchun qoʻllaniladigan atama ekanligini qaysi lugʻat orqali			

	aniqlash mumkun?			
7	Qomusiy lug‘at deb nimaga aytiladi?			
8	Qanday lug‘atlar alifbo tartibida tuzilagan?			
9	Leksikografiya bu			
10	Imlo lug‘atiga misol keltiring?			
Ism,sharif				

566-mashq. Quyidagi so‘zlarni alifbo tartibida yozib chiqing. Bu tartibdan qanday lug‘atlarda foydalaniladi? Shu haqda fikr yuriting.

Asr, dorivor, ajabo, transport, raqobat, sun‘iy, zerikmoq, hunar, kasb, ahd, latta, eski, sadaqa, tuman, hidoyat, baquvvat.

✚ O‘quvchilar bilimni baholash

O‘quvchilarning dars davomida berilgan topshiriq, mashq va testni yechishdagi natijalari va o‘quvchilarning qo‘ygan holis baholari orqali faol o‘quvchilar baholanadi.

✚ Uyga vazifa

567-mashq. Uyga topshiriq. «Botanika» darsligingizning oxirgi qismida berilgan o‘simliklar ro‘yxatiga qarang. Berilish tartibiga diqqat qiling. Uni lug‘at deyish mumkinmi? Shu haqda bahslashing.

UMUMIY XULOSALAR

O'zbek bolalar nutqi leksikasini sotsiopsixolingvistik aspektda tadqiq etish maqsadida olib borilgan ilmiy izlanishlar, amaliy kuzatuv hamda tajriba natijalarini tahlil qilish va umumlashtirish asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Bolaning 9 oydan 3 yoshgacha bo'lgan davrida ba'zi tushunchalarni ifodalovchi nominativ birliklar muloqot muhitiga bog'liq ravishda uning nutqida o'ziga xos tarzda aks etadi. Ontogenez jarayonida bunday leksik vositalar ijtimoiy omillar ta'sirida paydo bo'ladi va semantik jihatdan umumiylik yoki o'ziga xoslik kasb etadi.

2. Bola 3 yoshga qadam qo'yishi bilan uning verbal muloqotida hududiy belgilar asosida namoyon bo'luvchi leksik dialektizmlarning o'rnini me'yoriy lug'aviy birliklar to'ldirib boradi. Bolada nutq me'yorlarini o'zlashtirish ko'nikmasining shakllanishi ta'lim jarayonida til qoidalarini chuqur egallashga asos bo'ladi.

3. Tajriba natijalariga ko'ra, 3-4 yoshli ayrim bolalar tomonidan so'zlar vositasida fikrning erkin ifodalanishida lisoniy to'siqlar mavjudligi anglashildi. Bu to'siqlar bolalarning oilaviy muhiti, muloqotga kirishishning ruhiy va nutqiy tayyorgarlik holatiga bog'liq ekanligi aniqlandi.

4. Bola 4 yoshdan 6 yoshgacha bo'lgan davrida kattalar nutqiga oid so'zlarning ma'nolarini tushunishda qiyinchiliklarga duch kelsa, vaziyatdan chiqishning qulay yo'llarini o'ylab topishga harakat qiladi. Natijada bolaning kattalarga bergan javoblari til va tafakkur qonuniyatlariga nomuvofiq tarzda ifodalanadi.

5. Ba'zan bola til lug'at tizimiga xos imkoniyatlarni o'zlashtirish jarayonida diglossiya hodisasiga duch keladi. Bir tilning ikki shakli yoki ikki tildan foydalanish natijasida yuzaga keluvchi leksik muammolarni aniqlash o'quvchilarning savodxonlik darajasini belgilashga yordam beradi.

6. Boshlang'ich va yuqori sinf o'quvchilari nutqi leksikasiga xos farqli xususiyatlar ular tomonidan ko'p ma'noli so'zlar o'rtasidagi semantik

munosabatlarni aniqlash jarayonida yaqqol aks etadi. O'quvchilar nutqida kuzatiladigan leksik-semantik xususiyatlarni tadqiq qilishda intellektual-psixologik o'yinlar muhim ahamiyat kasb etadi.

7. Yuqori sinf o'quvchilarining lisoniy ongida mavjud mavhum leksema ma'nolarini individual-psixologik xususiyatlarni hisobga olgan holda tadqiq etish bolalar tafakkur tarziga xos o'zgarishlar ta'sirida ular nutqining jadal rivojlanib borayotganligini aniqlashga imkon beradi. Chunki o'smirlar perseptiv lug'atida o'zbek tilining leksik qatlamida mavjud bo'lmagan ko'plab yangi ma'nolar ham o'z aksini topadi.

Bolalar nutqida hududiy va ijtimoiy belgilar asosida yuzaga keluvchi lug'aviy vositalarning ayrimlari ularning kommunikativ faoliyatida shevalararo integral, ba'zilar esa differensial semaga ega bo'ladi. O'zbek bolalar nutqiga xos leksik dialektizmlarni semantik xususiyatlariga ko'ra quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

- a) narsa-buyum va shaxs nomini anglatuvchi so'zlar;
- b) ish-harakatning nomini ifodalovchi so'zlar;
- v) narsa-buyumning belgisini bildiruvchi so'zlar;
- g) immitatsiya usuli asosida hosil bo'lgan so'zlar.

Bolalarning til lug'at tizimidan foydalanish jarayonida kuzatiladigan ayrim leksik xususiyatlar diglossiya va sun'iy bilingvizm hodisalari ta'sirida namoyon bo'ladi. Bolalar tomonidan bir tilning mavjudlik shakllari yoki ikki tilga xos so'zlarning o'zlashtirilish jarayonida yuzaga keluvchi sotsiolingvistik xususiyatlar savodxonlik bilan bog'liq muammolarni tadqiq etishda muhim ahamiyatga egadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A Barkamol avlod orzusi. – Toshkent: Sharq, 1999. - 182 b.
2. Karimov I.A Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. - Toshkent: O'zbekiston, 2000. - 32 b.
3. Alimova F. O'quvchilarning muloqot matnini yaratishga oid ko'nikmalarini shakllantirish // Xalq ta'limi. - Toshkent, 2004. - № 6. - B. 63-66.
4. Asqarova M., Matchonov S. va b. Kichik yoshdagi bolalar nutqini o'stirish. – Toshkent: O'zbekiston, 2000. - 160 b. M.E., G'ulomova I.R. Bolalar bog'chasida
5. Dadaboev H. Tilshunoslik nazariyasi va metodologiyasi. - Toshkent: Universitet, 2004. - 56 b.
6. Fuzailov S., Xudoyberganova M. Ona tili. 3-sinf uchun darslik. - Toshkent: O'qituvchi, 2005. - 144 b.
7. Gapparov A. Eshitib tushunish ko'nikmasini shakllantirish haqida // Til va adabiyot ta'limi. - Toshkent, 2008. - № 3. - B. 77-80.
8. Hojiev A. O'zbek tili sinonimlarining qisqacha lug'ati. - Toshkent: O'zfanakadnashr, 1963. - 260 b.
9. Hojiev A. O'zbek tili so'z yasalishi. -Toshkent: O'qituvchi, 2007.-168 b.
- 10.Hojiev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. - Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002. - 168 b.
- 11.Ikromova R., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Shodmonova D. Ona tili. 4-sinf. - Toshkent: O'qituvchi, 2007. - 190 b.
- 12.Iskandarova G. Bolalar nutqining kommunikativ xususiyatlari / Magistratura – 2001 (magistrlik bitiruv malkaviy ishlarining qisqacha bayoni). - Toshkent, O'zMU, 2001. - B. 146.
- 13.Iskandarova G. Bolalar nutqining o'ziga xos xususiyatlari / O'zbek filologiyasi masalalari. - Toshkent, O'zMU, 2002. - B. - 118-121.
- 14.Jo'rayev L., Xan S., Kamolova L. Fly High. Ingliz tili darsligi. 5-sinf. - Toshkent: O'qituvchi, 2007. - 200 b.

15. Jo'raev S., Qodirov H. Kichkintoy nutqini o'stirish. - Toshkent: O'qtuvchi, 1995. - 136 b.
16. Matchonov S., G'ulomova X. Lug'at ustida ishlash // Boshlang'ich ta'lim. 2002. - № 2. - B. 14-15.
17. Mahmudov N. Nutq madaniyati va boshqa fanlar // Til va adabiyot ta'limi. - Toshkent, 2007. - № 1. - B. 9-14.
18. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Nabieva D. Ona tili. Umumta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik. - Toshkent: Tasvir, 2005. - 176 b.
19. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A. va b. Ona tili. Umumta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. - Toshkent: Ma'naviyat, 2005. - 126 b.
20. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A. Ona tili. Umumta'lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik. - Toshkent: Tasvir, 2006. - 128 b.
21. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A va b. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. - Toshkent: Ma'naviyat, 2007. - 224 b.
22. Mirtojiev M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. - Toshkent: Universitet, 2004. - 222 b.
23. Mo'minov S. M. O'zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari. Filol. fan. dok. ...dis. avtoref. - Toshkent, 2000. - 43 b.
24. Mo'minov S. M. O'zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari. Filol. fan. dok. ...dis. - Toshkent, 2000. - 235 b.
25. Nabieva S. Bolalar so'z boyligini oshirish metodlari // Xalq ta'limi. - Toshkent, 2006. - № 3. - B. 75-78.
26. Saidxonov M. O'quvchilar nutqini o'stirish omillari // Til va adabiyot ta'limi. - Toshkent, 2000. - № 4. - B. 4-7.
27. Sayidrahimova N. Bolalar nutqining fonetik xususiyatlari // O'zbek tili va adabiyoti. - Toshkent, 2000. - № 2. - B. 75-78.
28. Sayidrahimova N. Bolalar nutqining tilshunoslikda o'rganilish tarixi // Til va adabiyot ta'limi. - Toshkent, 2002. - № 4. - B. 21-23.
29. Solihova M., G'ozieva S. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar uchun xalq o'yinlari. - Toshkent: O'qituvchi, 1970. - 44 b.

30. To'xtasinova O. Okkazonalizmlarning nutqiy vazifasi // Til va adabiyot ta'limi. - Toshkent, 2006. - № 4. - B. 22-26.
31. Xatamova N. O'quvchilarning lug'at boyligini oshirishda qo'llaniladigan o'yinlar // Til va adabiyot ta'limi. - Toshkent, 2006. - № 5. - B. 89-92.
32. Yo'ldoshev R.A. O'quvchilar nutqini o'stirishning ta'lim metodlariga bog'liqlik jihatlari // Uzluksiz ta'lim. - Toshkent, 2004. - № 6. - B. 65-72.
33. Yo'ldosheva N. Leksikologiya bo'yicha ertak dars // Til va adabiyot ta'limi. - Toshkent, 2001. - № 1. - B. 14-19.
34. Yo'ldosheva D. Bolalar nutqida topishmoqlar // O'zbek tili va adabiyoti. - Toshkent, 2006. - № 1. - B. 82-84.
35. Zokirov M., Hakimov M. Bilingvizm va til interferensiyasi xususida // O'zbek tili va adabiyoti. - Toshkent, 2001. - № 1. - B. 26-30.
36. Yuldasheva D. Bola nutqida zoonimlarning etnopsixolingvistik xususiyatlari // Xalq ta'limi. - Toshkent, 2004. - № 5. - B. 73-78.
37. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli. - Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006-2008. - 592 b
38. Shodieva Q. Nutq o'stirish uslubiyati. - Toshkent: O'qituvchi, 2002. - 121 b.